

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

XO‘JAYOROV ASILBEK OTABEK O‘G‘LI

**IX-XII ASRLARDA NASAF VOHASI ALLOMALARINING
MARKAZIY OSIYO ILM-FANI VA MADANIYATI RAVNAQIGA
QO‘SHGAN HISSASI**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата доктора философии (PhD)

Contents of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Хо‘jayorov Asilbek Otabek o‘g‘li

IX-XII asrlarda Nasaf vohasi allomalarining Markaziy Osiyo ilm-fani va madaniyati ravnaqiga qo‘shgan hissasi..... 5

Хужаёров Асилбек Отабек угли

Вклад ученых оазиса Насаф в развитие среднеазиатской науки и культуры IX-XII веках..... 27

Khojayorov Asilbek Otabek ugli

The contribution of the scholars of the Nasaf oasis to the development of science and culture in Central Asia in the 9th-12th centuries..... 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 57

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

XO‘JAYOROV ASILBEK OTABEK O‘G‘LI

**IX-XII ASRLARDA NASAF VOHASI ALLOMALARINING
MARKAZIY OSIYO ILM-FANI VA MADANIYATI RAVNAQIGA
QO‘SHGAN HISSASI**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Tar1341 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universiteti huzuridagi Abul Mu'in an-Nasafiy ilmiy-tadqiqot markazida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) hamda "ZiyoNET" Axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Buriyev Achil

tarix fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Raimqulov Abdusabur Azzamovich

tarix fanlari doktori, professor

Aminov Bobir Bomuradovich

tarix fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05-raqamli Ilmiy Kengashning 2025-yil "17" "05" soat 9⁰⁰ da: majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04, faks: (+998 75) 220-02-10, e-mail: kasu_info@edu.uz). Qarshi davlat universiteti.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (268 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "28" "04" kuni tarqatildi.

(2025-yil "28" "04" da: "14" raqamli reestr bayonnomasi bilan).



B.J. Eshov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy Kengash raisi, t.f.d.,
professor

N.N. Rajabova

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy Kengash kotibi, t.f.n.,
dotsent

Yu.A. Ergasheva

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy Kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, t.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi jahon globallashuvi davrida milliy o'zlikni anglash, o'tmishda yaratilgan boy ilmiy-ma'naviy merosni tadqiq etish, ularni to'la-to'kis keng ommaga yetkazish bo'yicha sa'y-harakatlar tobora kuchaymoqda. Shuningdek, keng ilmiy jamoatchilik tomonidan jahon ilm-fani va islom sivilizatsiyasi rivojiga o'z munosib hissasini qo'shgan Markaziy Osiyolik olimlarning ulkan xizmatlari ham e'tirof etilmoqda. Sharqdagi birinchi Uyg'onish davrida ham dunyoviy, ham diniy ilmlar bo'yicha jahonning eng ilg'or olimlari qatorida turgan, islom dini va umumbashariy sivilizatsiya rivojiga benazir hissa qo'shgan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Abul Mu'in Nasafiy kabi buyuk mutafakkir allomalarimizning insoniyat ravnaqiga ulkan merosi va ta'limotlari o'rganilmoqda va ilmiy tadqiq qilinmoqda. Shuningdek, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi o'z faoliyatini boshlash arafasida turibdi.

Jahonning yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlarida o'rta asrlarda faoliyat ko'rsatgan Markaziy Osiyolik allomalar ilmiy-ma'naviy merosini o'rganishga bag'ishlangan samarali tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, University of Oxford (Buyuk Britaniya), British Institute of Persian Studies (Buyuk Britaniya), Indiana University (AQSh), International Society of Arabic Papyrology in Leiden-Holland (Niderlandiya), Cairo University (Misr), Turkish Religious Foundation Centre for Islamic Studies (Turkiya), Marmara University (Turkiya), Istanbul Universitesi (Turkiya), Rossiya FA Sharqshunoslik instituti, Qozon Islom universiteti (Rossiya) kabi yetakchi ilmiy muassasalarda ham dunyoviy, ham diniy ilmlar bo'yicha qoldirilgan merosni o'rganishga qaratilgan izlanishlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi Yangi O'zbekiston sharoitida ajdodlarimiz, xususan, Nasaf vohasidan yetishib chiqqan yetuk allomalarning ilmiy-ma'naviy merosini o'rganishga e'tibor ham kuchaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Turli davrlarda Nasaf shahrida 400 nafardan ziyod islomshunos olimlar yashab faoliyat ko'rsatgan. Ularning ilmiy merosini chuqur o'rganish, asarlarini bugungi tilimizda keng jamoatchilikka tushunarli qilib nashr etish muhim vazifamizdir. Xususan, Abul Mu'in Nasafiy, Najmiddin Nasafiy, Aziziddin Nasafiy, Barokat Nasafiy, Xiromiy, Sayido Nasafiy, Xayoliy singari ulug' allomalarning ilmiy-ma'naviy merosi bugun ham beqiyos ahamiyatga ega"¹. 2022-yilda Qarshi davlat universiteti tuzilmasida "Abu-l Mu'in an-Nasafiy" ilmiy-tadqiqot markazining tashkil etilishi ham voha allomalari ilmiy-ma'naviy merosini o'rganishga bo'lgan e'tiborning yaqqol namunasidir. Shuningdek, IX-XII asrlar Nasaf vohasi allomalarining Markaziy Osiyo ilm-fani va madaniyatiga qo'shgan munosib hissasini dissertatsiya shaklida maxsus ilmiy tadqiq etish bu mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган 2-нашри. – Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, 2022. – Б. 298.

to'g'risida"gi farmoni, 2022-yil 11-fevraldagi PQ–2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori, 2021-yil 16-iyuldagi PQ–5186-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori, 2022-yil 27-maydagi PQ–261-son “Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-martdagi 117-son “Qashqadaryo viloyati Qarshi tumanidagi Abu Muin Nasafiy majmuasini boshqarish va obodonlashtirish direksiyasini tashkil etish to'g'risida”gi qarori va soha faoliyatini takomillashtirishga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishtirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. O'rta asrlarda Nasaf vohasi allomalarining ilmiy-ma'naviy merosini o'rganish bo'yicha manba va adabiyotlarni davriylik va mazmuni jihatida quyidagi guruhlariga bo'lish maqsadga muvofiq:

- 1) o'rta asrlar mualliflarining asarlari;
- 2) sovet davri nashrlari;
- 3) mustaqillik yillarida amalga oshirilgan o'zbek olimlarining izlanishlari;
- 4) xorijiy mamlakatlar sharqshunoslarining tadqiqotlari.

Birinchi guruhga Abdulkarim Qushayriy (986–1072)², Najmiddin Umar Nasafiy (1070–1142)³, Abudulkarim Sam'oniyy (1113–1167)⁴, Yoqut Hamaviy (1179–1229)⁵, Imom Shamsiddin Muhammad Zahabiy (1274–1348)⁶, Hoja Xalifa (1609–1657)⁷, shuningdek, Umar Rizo Kakhola (1905–1987)⁸ kabi mualliflarning asarlarini kiritish mumkin. Mazkur asarlarda Markaziy Osiyo hududidan yetishib chiqqan ko'plab mufassir, mutakallim, faqih, muhaddis, mutasavvuf va tilshunos

² Abdulkarim Qushayriy. ar-Risolutu-l-qushayriyya // Abdulkhalim Maḥmud va Maḥmud ibn Sharif taḥkiqi. – Qoḥira: Dору-ш-шаъб, 1409/1989.

³ Abu Ḥafṣ Umar ibn Muḥammad ibn Aḥmad an-Nasaḥiy. Kitob al-Qand fi zikri ulaḥmoin Samarqand. Nazar Muḥammad al-For'ebiiy taḥriiri ostida. – al-Mamlaka al-Arabiya as-Suudiya: Maktabat al-Kavṣar, 1412/1991; Najmiddin Umar ibn Muḥammad ibn Aḥmad an-Nasaḥiy. Al-qand fi zikri ulaḥmoin Samarqand [Samarqand ulaḥmolari hotirasiga doir qand (dek shirin kitob)]. – Toḥkent: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001. – 304 б.

⁴ Самъоний Абу Саъд Абдулкарим ибн Муḥammad ибн Мансур Тамимий. Ал-Ансоб. Абдуллох Умар Борудий таḥриiri ostida. – Байрут: Дорул фикр, 1419/1998; Абдулкарим ибн Муḥammad ибн Мансур ат-Тамимий ас-Самъоний. Насабнома. Таржимонлар Абдулғофур Раззоқ Бухорий ва Комилжон Раҳимов. – Тошкент: Nilol-Nashr, 2017. – 336 б.

⁵ Ёкут ал-Ḥamaviy. Муъжам ал-булдон. 14 жилдлик. – Байрут: Дар Байрут, 1977.

⁶ Шамсиддин Муḥammad Заḥabiiy. Сияру аъламин нубало. 25 жилд. Қоḥира, 1981–1985; Имом Шасмиддин Муḥammad ибн Аḥmad ибн Усмон Заḥabiiy. Машхур даḥолар сийрати. – Тошкент: Nilol-Nashr, 2020. – 480 б.

⁷ Ҳожа Халифа. Кашфуз зунун на асамиъил кутуб вал фунун. 2 жилдли. – Истанбул: 1360-62/1941-43.

⁸ Умар Ризо Каҳҳола. Муъжам ал-муаллифийн. I-IV. – Дамашк, 1958–1960.

allomalar qatorida nasaflik bo'lgan olimlar va ularning ilmiy-ma'naviy faoliyati bo'yicha qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Ikkinchi guruh. Sovet davrida yurtimiz allomalarining ilmiy-ma'naviy merosini o'rganish imkoniyatlari cheklangan bo'lsa-da, V.V. Bartold (1869–1930), Ye.E. Bertels (1980–1957) kabi rus sharqshunoslarining asarlarida⁹ Nasaf vohasi allomalari haqida qisqa bo'lsa ham ma'lumotlar berib o'tilgan. Sovet davrida kommunistik mafkura tazyiqi ostida allomalar ilmiy merosini o'rganishga taqiq o'rnatilgan edi. Shu boisdan ushbu manbalardan to'liq ma'lumotlar olib bo'lmaydi.

Uchinchi guruh. Mustaqillik yillarida yurtimizda ajdodlarimiz, xususan, nasafiy allomalar merosini kengroq o'rganish bo'yicha salmoqli ishlar bajarilib, bu davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Voha allomalari merosining ilk ilmiy tadqiqi professor Ubaydulla Uvatov (1940–2020)¹⁰ tomonidan amalga oshirilgan.

Shuningdek, Poyon Ravshanov (1941–2020)¹¹, Nosir Muhammad (1943–2017)¹², Ismoil Rayhonov¹³, Abdusattor Jumanazar¹⁴ tadqiqotlari voha allomalari ilmiy merosini o'rganishda muhim o'rin egallaydi. Bundan tashqari, Shomurod Sharopov, Ibrohim Xoliyorovlar¹⁵ ning maqolalari va Abul Mu'in Nasafiy ziyoratgohi haqidagi ilmiy-ommabop risolasida buyuk allomaning hayoti hamda ilmiy faoliyati to'g'risida so'z yuritilgan.

Istiqlol yillarida mavzuga doir davriy matbuot nashrlarida ham qator mualliflarning ilmiy va publitsistik maqolalari chop etilgan. Jumladan, N .Egamov,

⁹ Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – Сочинения. Т. I. – М., 1963; Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. Избранные труды. – М.: Наука, 1965.

¹⁰ Уватов У. Донолардан сабоқлар. – Тошкент, 1994. – Б. 65. Шу муаллиф. Мухим манба [Абул Муъин ан-Насафий хақида] // Халқ сўзи, 2000 йил 20 апрель; Шу муаллиф. Абул Муъин ан-Насафий ва унинг асарлари // Имом Бухорий сабоқлари, 2001 йил 1-сон. – Б. 218 – 220; Шу муаллиф. Абул Муъин ан-Насафий (хаёти ва мероси). – Тошкент: Маънавият, 2003; Шу муаллиф. Қашқа воҳасининг алломалари // Тошкент ислом университети илмий – таҳлилий ахбороти, 2005 йил 3-сон. – Б. 12–13; Шу муаллиф. Насафлик алломалар // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2006 йил 15 сентябрь; Абу Ҳафс Насафий. – Юртимиз алломалари // масъул муҳаррир У. Уватов. – Тошкент: Нихол, 2014. – Б. 89; Шу муаллиф. “Абу-л-Аббос ал-Мустағфирий” // Буюк юрт алломалари. – Тошкент: O'zbekiston, 2016. – Б. 120–121; Уватов У., Оқилов С., Даминов И. Мотуридия таълимоти ва Абу Муин Насафий илмий мероси. Масъул муҳаррир У. Алимов. – Тошкент: Movarounnahr, 2018. – 304 б; Табриратул адилла фи усулид дин (Дин асослари далилларининг баёни). Таржимон У. Уватов ва бошқ. I-IV жилд. – Тошкент: Movarounnahr, 2018. – 440 б.; 38. Шу муаллиф. Sharqu g'arb olimlari bahra topgan dengiz: Абу-л-Муъин ан-Насафий хақида // Sohibqiron yulduzi, 2018 йил 1-сон. – Б. 63–67; Шу муаллиф. Абул-Муин ан-Насафий Баракоти // Sohibqiron yulduzi, 2018 йил 4-сон. – Б. 14–17. ва бошқ.

¹¹ Ravshanov P. Adabiy saħifalar. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985; Шу муаллиф. Қашқадарё тарихи (энг қадимги даврлардан XIX аср II ярмига қадар). – Тошкент: Фан, 1995. – 782 б.; Шу муаллиф. Қарши тарихи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – 647 б.

¹² Муҳаммад Н. Насаф ва Кеш алломалари (IX-XX асрлар). Тазкира. Қайта ишланган ва тўлдирилган 2-нашр. – Тошкент: Фафур Фулом НМИУ, 2006. – 128 б.; Муҳаммад Н. Насафийларнинг бебаҳо мероси: [Абу Муъин ан-Насафий хақида] // Sohibqiron yulduzi, 2013 йил 2-сон. – Б. 96–103.

¹³ Райхонов И. Абу Туроб ан-Нахшабий. – Қарши: Насаф, 2018. – 16 б.

¹⁴ Жуманазар А. Насаф. Масъул муҳаррир: А.Аҳмедов. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. – 204 б.; Шу муаллиф. Насафдаги маърифат қўрғони // Насафийлар илмий-маънавий меросининг жаҳон цивилизациясида тутган ўрни. Халқаро илмий амалий конф. мат. – Қарши: Қарши давлат университети нашриёти, 2023. – Б. 30–34.

¹⁵ Шаропов Ш. Қашқадарё зиёратгоҳлари 1-китоб. – Тошкент: Voris nashriyot, 2010. – 400 б.; Холиёров И., Шаропов Ш. Ҳазрати Имом Мўъин зиёратгоҳи. 2-нашр. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2011. – 45 б.; Шаропов Ш. (Шароф Насафий) Насафийлар сулоласи [Абул Муъин ан-Насафий ва унинг авлодларини илмий ўрганиш хақида] // Тағоват, 2014 йил 22 апрель; Шаропов Ш., Холиёров И. Ёдгорликларга бой гўша. – Тошкент: Voris nashriyot, 2016. – 192 б. Шу муаллифлар. Ҳақиқат қиличи: [Абул Муъин Насафий хақида асар] // Naxshab, 2020 йил 27 январь.

O‘. Shukur, R. Akbarov, A. Qobilov, O‘. G‘uzorov, D. Muqimova, D. Choriyev, X. Vazirov, A. Musayev, B. Sayfiyev¹⁶ va boshqa mualliflarning ishlarida Nasafiy allomalar merosi haqida barcha uchun ommabop bo‘lgan ma‘lumotlar keltirilgan.

E‘tiborli jihati shuki, mustaqillik yillarida yurtimiz hududidan, xususan, Nasaf-Qarshi vohasidan yetishib chiqqan olimlar ilmiy-ma‘naviy merosini o‘rganishga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotlar amalga oshirildi. Jumladan, S. Oqilovning¹⁷ I. Daminov¹⁸, D. Maxsudov¹⁹, A. Allaqulov²⁰,

¹⁶ Калом илмининг алломаси // Qashqadaryo, 2001 йил 25 апрель; Эгамов Н. Буюк алломага эҳтиром // Qashqadaryo, 2001 йил 28 апрель; Шу муаллиф. Бизга Насафийнинг “хисса”си зарур // Qashqadaryo, 2018 йил 4 декабрь; Шукур Ў. Имом ал-Бухорий издошлари [Абул Муъин ан-Насафий ҳақида] // Имом ал-Бухорий сабоқлари, 2004 йил 1-сон. – Б. 14–16; Акбаров Р. “Абул Муъин ан-Насафий” зиёратгоҳи // Воҳа, 2017 йил 9 март; Қобилов А. Насафий зиёси минг йиллар оша қалбларни мунаввар этмоқда // Adolat kuchi, 2017 йил 13 июль. Шу муаллиф. Насафий кимники? – англаганики // Barkamol avlod, 2018 йил 4 декабрь; Ғузоров Ў. Далиллар тилга кирганда: [Абул Муъин ан-Насафий ҳақида] // Qashqadaryo, 2017 йил 25 ноябрь; Муқимова Д. Абул Муъин ан-Насафий адашган фирқаларга қандай раддиялар берган? // Qashqadaryo, 2018 йил 27 март; Чориев Д. Абул Муъин Насафий – буюк аллома // Адолат кучи, 2018 йил 15 февраль; Вазиров Х. Усул ва калом билимдони // Sadoqat, 2019 йил 14 июль; Сайфиев Б. Абул Муъин Насафий илмий мероси Туркияда чуқур ўрганилмоқда // Barkamol avlod, 2019 йил 31 июл; Шу муаллиф. Мутахассислармиз Туркияда Абул Муъин Насафий илмий мероси бўйича изланиш олиб бормоқда // Qashqadaryo, 2019 йил 23 июль; Шу муаллиф. Адашган, бироқ билимсиз бўлмаган фирқаларни рад этишда [Абул Муъин ан-Насафий қандай далиллар келтирилганлиги ҳақида] // Qashqadaryo, 2020 йил 21 февраль.

¹⁷ Оқилов С. Абу Муин Насафий илмий мероси ва мотуридия таълимоти. Монография. – Тошкент: Нур полиграф, 2008. – 190 б.; Шу муаллиф. Насафийлар сардори – Абул Муин ан-Насафийнинг мотуридия таълимоти ривождаги ўрни // Sohibqiron yulduzi, 2016 йил 3-сон. – Б. 45–55; Шу муаллиф. Эзгулик ва адолатни улуғлаган аллома // Халқ сўзи, 2018 йил 11 декабрь; Шу муаллиф. Калом (Ақоид). Ўқув қўлланма. – Тошкент: Nihol-Nashr, 2019. – 200 б.; Шу муаллиф. Мовароуннахр мутақаллимлари илмий мероси. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Хилол-Нашр, 2019. – 200 б.; Оқилов С., Полвонов Ў. Калом илми ва ақида мактаблари тарихи. – Тошкент: Muharrir nashriyoti, 2020. – 204 б.

¹⁸ Даминов И. Абу-л-Муин Насафий. Масъул муҳаррир Ш.С. Ғафоров. – Самарқанд: Имом Бухорий халқаро маркази, 2013. – 108 б.; Шу муаллиф. Мовароуннахрда калом илми ривожи ва макхулийлар // Имом Бухорий сабоқлари, 2013 йил 3-сон. – Б. 191–194; Шу муаллиф. Макхулий алломалар ва калом // СамДУ Илмий ахборотнома, 2014 йил 4-сон. – Б. 17–19; Шу муаллиф. Ўзбекистон – барча илмлар бешиги: [Абу Муъин ан-Насафий илмий мероси ҳақида] // Barkamol avlod, 2018 йил 11 декабрь; Шу муаллиф. “Сўзлар денгизи”нинг жавохирлари: Абу Муъин ан-Насафийнинг “Бахру-л-калом” асари ҳақида // Qashqadaryo, 2018 йил 11 декабрь; Шу муаллиф. Абул-Муъин ан-Насафийнинг “Бахру-л-калом” асари – мотуридия таълимоти тарғиботи бўйича муҳим манба // Sohibqiron yulduzi, 2018 йил 4-сон. – Б. 45–49; Шу муаллиф. Жаҳолатга қарши маърифат билан курашган буюк аллома. – Самарқанд: Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази нашриёти, 2019. – 756 б.; Шу муаллиф. Қовчиннинг донишманд пешволари. – Тошкент: Muharrir, 2021. – 72 б.; Ат-тамҳид ли қавоиди–т–тавҳид (Тавҳид қоидалари муқаддима). Нашрга тайёрловчи И. Даминов – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2017. – 248 б. ва бошқ.

¹⁹ Махсудов Д. Муфассир олим // Имом Бухорий сабоқлари, 2006 йил 2-сон. – Б. 104–105; Шу муаллиф. Имом Насафийнинг мероси ҳақида // Имом Бухорий сабоқлари, 2011 йил 1-сон. – Б. 19 б.; Шу муаллиф. Абул Баракот Насафий ҳаёти ва илмий ижоди. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2013. – 63 б.; Шу муаллиф. Абул Баракот ан-Насафий ва унинг “Мадорик ат-танзил ва ҳақоик ат-таъвил” асари. Монография. – Тошкент, 2013; Шу муаллиф. Абул Баракот ан-Насафий ва унинг “Мадорик ат-Танзил ва ҳақоик ат-Таъвил асари. – Тошкент, 2014; Шу муаллиф. Абул Баракот Насафий // Юртимиз алломалари. – Тошкент: Nihol, 2014. – Б. 98–103; Шу муаллиф. Қадим Насаф ва унинг буюк алломалари: [Абул Муъин ан-Насафий ҳақида] // Sohibqiron yulduzi, 2017 йил 1-сон. – Б. 45–53.; Шу муаллиф. Абул Баракот Насафий. – Тошкент, 2021; Шу муаллиф ва бошқ. Мовароуннахрлик ўн муфассир. – Тошкент, 2022. – 64 б.

²⁰ Аллақулов А. Мотуридия таълимотини “Ақоид Насафий”да акс этиши // Дунёвийлик ва динийлик ёшлар нигоҳида. Илмий-амалий анжуман. – Тошкент, 2010. – Б. 173–175; Шу муаллиф. Умар Насафий ва унинг “Ақоид” асари таҳлили // Тошкент ислом университети Илмий-таҳлилий ахборот, 2016 йил 4-сон. – Б. 62–66; Шу муаллиф. Насафий “Ақоид”ига ёзилган қадимий шарҳлар // Ёш шарқшуносларнинг академик Убайдулла Каримов номидаги XIV илмий-амалий конференцияси тезислари. – Тошкент, 2017. – Б. 169–173; Шу муаллиф. Абул – Юср Паздавий. Илмий рисола. – Тошкент: Mahalla va oila nashriyoti, 2022. – 44 б.; Шу муаллиф. Мовароуннахрлик ўн мутақаллим. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2022. – 56 б.

S. Muhammadaminov²¹, A. Murodov²², N. Bozarboyevalarning²³ faoliyatida voha allomalari to‘g‘risida izlanishlar olib borishgan.

Bundan tashqari D. Rahimjonov, S. Oqilov, D. Maxsudov, N. Nasrullayev, S. Muhammadaminov, A. Allaqulov, I. Daminov, A. Muratov kabi olimlar²⁴ tomonidan yozilgan dissertatsiya ishlarida voha allomlari ilmiy-ma‘naviy merosi bo‘yicha ma‘lumotlar berib o‘tilgan. Ushbu mualliflarning tadqiqotlarida voha allomalarining ilmiy-ma‘naviy merosi islomshunoslik fanlari nuqtayi nazaridan tahlil qilingan.

Lekin, hozirgacha IX-XII asrlarda voha allomalarining Markaziy Osiyo ilm-fani va madaniyati ravnaqiga qo‘shgan hissasi tarixshunoslik yo‘nalishida yaxlit dissertatsiya shaklida bajarilmagan.

To‘rtinchi guruhga doir xorijiy mualliflardan V. Kureton, F. Sezgin, S. Brokelman, X. Xalm, M. Bernard²⁵ va boshqalar o‘z tadqiqotlarida Markaziy Osiyo allomalarining islom ilmlari rivojiga qo‘shgan hissasiga to‘xtalishgan. Ayniqsa, nemis sharqshunosi Ulrix Rudolfning tadqiqoti²⁶ ahamiyatlidir.

Shuningdek, turkiyalik sharqshunos olimlardan M. Kastalli, M. Sherafeddin, K. Ishik, H. Otay, M. Yazichio‘g‘li, M. O‘zervarli, Y. Kavakji,

²¹ Мухаммадаминов С. Абу Ҳафс Насафийнинг усул ал-фикҳга оид рисоласи // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 2007 йил 1-сон. – Б. 85–88; Нажмиддин Абу Ҳафс Умар ибн Муҳаммад ибн Аҳмад ан-Насафий. Матла‘ ан-нужум ва мажма‘ ал-‘улум. Нашрга тайёрлаш, кириш ва кўрсаткичлар С.Мухаммадаминовники. – Тошкент: Тошкент ислом университети нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2015. – 896 б.

²² Мурадов А. Умар Насафийнинг “ат-Тайсир фи-т-тафсир” асарига асос бўлган манбалар // Мерос журнали, 2020 йил 1-сон. – Б. 14–21;

²³ Базарбаева Н. Абу Мутиъ Макхул Насафий. Илмий рисола. – Тошкент: Mahalla va oila nashriyoti, 2022. – 36 б.

²⁴ Раҳимжонов Д. Абу Ҳафс ан-Насафийнинг “Китоб ал-қанд фи маърифат уламо Самарқанд” асари Самарқанд ҳадис илми тарихи бўйича муҳим манба. Тарих фан. номз. дисс... – Тошкент: ТИУ, 2003; Оқилов С. Абу-л-Муъин ан-Насафий ва унинг Мотуридия таълимоти ривожига қўшган ҳиссаси (“Табсирату-л-адилла” асари асосида): Тарих фан. номз. дисс... – Тошкент: ТИУ, 2005; Махсудов Д. Абу-л-Баракот ан-Насафийнинг тафсир илмида тугган ўрни: Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент: ТИУ, 2008; Насруллаев Н. Лутфуллох Насафийнинг “Фикҳи Кайдоний” асари ва унга ёзилган шарҳ, ҳошиялар таҳлили: Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2012; Мухаммадаминов С. Абу Ҳафс ан-Насафийнинг “Матлаъ ан-нужум ва мажмаъ ал-улум” асари ва унинг Марказий Осиё ислом илmlари ривожига тугган ўрни (XI аср охири – XII аср ўрталари): Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2012. – 194 б.; Аллоқулов А. Абу Ҳафс Насафийнинг “Ақоид” асари ва унинг шарҳлари таҳлили: Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс... – Тошкент, 2018; Даминов И. Абу-л-Муъин Насафий илмий меросининг Мовароуннаҳр калом таълимоти ривожига аҳамияти: Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2019. – 46 б.; Муратов А. Абу Ҳафс Насафий “Тайсир фи-т-тафсир” асарининг манбашунослик тадқиқи: Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2021. – 41 б.

²⁵ Cureton W. Pillar of the creed of the Sunnites. – London: Printed for the society for the publication of oriental texts, 1843. – P. 53–59; Sezgin F. Geschichte des arabischen Schriftums. T. I. – Leiden, 1967. – P. 513; Heffening W. An-Nasafi // Encyclopedic de Islam. – Paris, 1993. T. VII. – P. 969; Brockelmann C. Geschichte der Arabischen Literatur. Bd I. – Leiden, 1943; Halm H. Die Ausbreitung der šafi‘itischen Rechtsschule von den Anfängen bis zum 8/14. Jahrhundert. – Визбаден: Dr Ludwig Reichert, 1974; Bernard M. Le Kitāb al-Radd‘ alā l-Bida‘ d‘Abū Muti‘ Makhūl al-Nasafi // Annales Islamologiques. – T. XVI. – Cairo: Institut Fransaisd‘Archmologie orientate, 1980. – P. 39–126; Madelung V. Abu-l-Mu‘in al-Nasafi and Ash‘arī Theology // Studies in honour of Clifford Edmund Bosworth. Vol. II: The Sultan’s Turret: Studies in Persian and Turkish Culture / Edited by Carole hillenbrand. – Leiden, Boston, Keln: Brill, 2000. – Б. 318; Wensinck F.J. Al-Nasafi // Encyclopaedia of Islam. Vol. VII. – Leiden. – New York: E.J. Brill, 1993. – P. 969. ва бошқ.

²⁶ Rudolph U. Al-Māturīdī and the Development of Sunnī Theology in Samarqand. – Leiden, New York, Koln: E.J. Brill, 1997.

T. Yeshilyurt²⁷ kabi olimlar o‘z ilmiy asarlarida Markaziy Osiyolik allomalarning aqida (kalom), fiqh ilmlari bo‘yicha faoliyatlarini yoritishganda nasafiy allomalar haqida ham alohida to‘xtalib o‘tishgan.

Xullas, xorijlik sharqshunoslarning asarlari voha allomalari ilmiy-ma’naviy merosini yanada kengroq o‘rganishga imkon yaratib, mavzuning tarixshunosligida ahamiyatli hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Qarshi davlat universiteti huzuridagi “Abu-l Mu’in an-Nasafiy” ilmiy-tadqiqot markazi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi IX-XII asrlarda Nasaf vohasi allomalarining Markaziy Osiyo ilm-fani va madaniyati ravnaqiga qo‘shgan hissasini tarixshunoslik yo‘nalishida ilmiy o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Markaziy Osiyodagi ilk Uyg‘onish davri ilm-fani va madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatib berish;

IX-XII asrlarda Nasaf vohasidagi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotni yoritish;

voha allomalarining kalom (aqida) ilmi rivojidadagi o‘rnini bayon etish;

nasafiy allomalarning tafsir ilmidagi faoliyati tarixi va ular qoldirgan merosning ahamiyatini ochib berish;

fiqhiy ilmlar rivojida voha allomalari merosining ilmiy ahamiyatini tahlil etish;

vohadagi hadis maktablari va muhaddislar faoliyatini tavsiflash;

vohada tasavvuf ta’limotining yoyilishi tarixi, mutasavvuflar faoliyati to‘g‘risida ma’lumotlar keltirish;

IX-XII asrlarda vohada adabiy va ilmiy hayotini tahlil qilish;

dissertatsiya mavzusi yuzasidan tegishli xulosa, taklif va tavsiyalar berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida IX-XII asrlarda Nasaf vohasi allomalarining Markaziy Osiyo ilm-fani va madaniyati ravnaqiga qo‘shgan hissasi olingan.

Tadqiqotning predmetini Nasaf vohasida o‘rta asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy hamda ma’naviy hayot, shuningdek, voha allomalarining ilmiy merosi va uning ahamiyati tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Ishda qo‘yilgan muammoga sivilizatsion yondashilib, qo‘yilgan masalalarni hal etishda O‘zbekiston tarixining yangi nazariy-metodologik tamoyillariga tayangan holda ketma-ketlilik, xronologik, haqqoniylik kabi usullardan foydalanildi.

²⁷ Kestelli M. Haşiye el-Kestelli 'ale'l-akaid en-Nesefiyye. – Ankara, 1928; Şerafeddin M. Türk kelâmcilari. – Ankara, 1932. DİFM, V/23.; Uludağ S. Kelam İlmi ve Mülîm Akridi (Şerhu'l-Akrid Tercümesi). Giriş. 34 vd. – İstanbul, 1980; Işık K. Mâtürîdî'nin kelâm sisteminde İlim, Allah ve Peygamberlik anlayışı. – Ankara, 1980. – 136 6.; Atay H. Ebu'l-Muîn Nesefî ve Tebsiretü'l-edille. – Ankara, 1993; Yazıcıoğlu M. S. Mâtürîdî kelâm ekolu'nun iki büyük siması: Ebu Mansur Mâtürîdî ve Ebu'l-Mu'in Nesefî // Ankara universitesi basimevi. – Ankara, 1985; Uzerverli M.S. Ebu'l-Muîn en-Nesefî'ye ait Tebsiretü'l-edille'nin kaynakları. (Yüksek lisans tezi). – İstanbul, 1988. – 74 6.; Kavakci Yusuf Ziya. XI ve XII asırlarda Karahaniylar davrinde Mavara' al-Nahr İslam Hukukçilari. – Ankara, 1976. – 322 6.; Bir Hanefî-Mâtürîdî Âlimi Ebü'l-Berekât en-Nesefî // Uludağ üniversitesi İlahiyat fakültesi dergisi. Cilt: 22, Sayı: 1, 2013 – S. 57–83.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda birinchi Uygʻonish (Renessans) davrida Nasaf shahrining yirik ilmiy-maʼnaviy markazga aylanishi bilan bogʻliq jarayonlar birinchi marotaba tarixiy manbalar asosida dalillangan, shuningdek, Qarshi davlat universiteti tuzilmasida “Abu-l Muʼin an-Nasafiy” ilmiy-tadqiqot markazining tashkil etilishining ahamiyati ochib berilgan;

Nasaf vohasining oʻrta asrlarda somoniylar, qoraxoniylar sulolalari davridagi siyosiy mavqei, vohaning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, yirik shaharlari va qishloq xoʻjaligi, hunarmandlik, savdo-sotiq ishlarining rivojlanganligi tarixiy manbalar va adabiyotlar asosida dalillangan;

voha allomalarining islom ilmlari – kalom (aqoid), tafsir, fiqh (islom huquqshunosligi) va hadisshunoslik sohalaridagi faoliyati, ilmiy va maʼnaviy merosi, ularning oʻrganilishi, bizning davrimizgacha yetib kelishi, shuningdek, Abul Muʼin Nasafiyning “Turkiya qoʻlyozma asarlar fondi”da saqlanayotgan “Tabsirat al-adilla” (2825-raqam ostida), “At-tamhid li qavoid at-tavhid” (1479-raqam ostida) va “Bahr ul-kalom” (1354-raqam ostida) asarlari qoʻlyozmalari toʻgʻrisida maʼlumotlar ilk marotaba bayon etilgan;

tadqiqotda vohada tasavvuf taʼlimotlarining tarqalishi, yetishib chiqqan mutasavvufilar faoliyati, ularning asarlari va ilgari surilgan gʻoyalariga toʻxtab oʻtilgan, shuningdek, oʻrta asrlarda Nasaf vohasida yozma adabiyot namunalari paydo boʻlishi, tilshunoslik ilmining rivoji, bundan tashqari voha allomalarining aniq va tabiiy fanlar rivojiga qoʻshgan hissi ham tarixiy manbalarga tayangan holda asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Markaziy Osiyo mintaqasida roʻy bergan birinchi Uygʻonish davri xususiyatlarini oʻrganishda, shuningdek, Nasaf vohasining oʻrta asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti, allomalar merosini tadqiq etish jarayonlarini ilmiy oʻrganish boʻyicha xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

IX-XII asrlarda Nasaf vohasida faoliyat olib borgan allomalarning ilm-fanning turli sohalaridagi merosini tadqiq etish, shuningdek, yurtimizda oʻrta asrlar davri mutafakkirlari ilmiy va maʼnaviy merosini oʻrganishning nazariy-uslubiy jihatlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada qoʻyilgan vazifalar birlamchi tarixiy manbalar, shuningdek, xorijiy sharqshunoslarning ishlari, mustaqillik yillarida amalga oshirilgan fundamental loyihalar natijalari, ilmiy toʻplamlar materiallari asosida yozilgani, tadqiqot natijalari vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ishning ilmiy ahamiyati shundaki, mazkur tadqiqot Oʻzbekistonda Uygʻonish davri mutafakkir va allomalari ilmiy-maʼnaviy merosini tadqiqi tarixiga doir maʼlumotlarni boyitishga va oʻrganishga doir nazariy xulosalar hamda uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqishga, shuningdek, Qarshi davlat universiteti tuzilmasida “Abu-l Muʼin an-Nasafiy” ilmiy-tadqiqot markazi faoliyatini ilmiy jihatdan boyitishga xizmat qiladi.

tadqiqotning amaliy ahamiyati O‘zbekistonda tarix fani va uning tarkibiy qismi hisoblangan ilm-fan sohasi tarixining rivojlanishiga bevosita bog‘liqligi bilan belgilanadi. Dissertatsiyadagi umumlashgan nazariy xulosalardan oliy o‘quv yurtlarining ijtimoiy fanlar yo‘nalishlari o‘quv jarayonida, shuningdek, o‘quv-uslubiy, o‘quv qo‘llanmalari yozishda, “Tarix” yo‘nalishi talabalariga maxsus kurs, seminar mashg‘ulotlarini olib borishda amaliy jihatdan foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. IX-XII asrlarda Nasaf vohasi allomalarining Markaziy Osiyo ilm-fani va madaniyati ravnaqiga qo‘shgan hissasi oid ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda birinchi Uyg‘onish (Renessans) davrida Nasaf shahrining yirik ilmiy-ma‘naviy markazga aylanishi bilan bog‘liq jarayonlarning birinchi marotaba tarixiy manbalar asosida yoritilganligi, shuningdek, Qarshi davlat universiteti tuzilmasida “Abu-l Mu‘in an-Nasafiy” ilmiy-tadqiqot markazining tashkil etilishining ahamiyatiga oid ma‘lumotlardan “O‘zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatilgan “Taqqdimot” ko‘rsatuvini tayyorlashda foydalanilgan (“O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali” davlat muassasasining 2023-yilning 16-iyundagi 02-31-976-son ma‘lumotnomasi). Bu aholi, ayniqsa, yoshlar orasida milliy o‘zlikni anglash, ajdodlarimizning boy ilmiy va ma‘naviy merosi bilan tanishish imkonini yaratgan;

Nasaf vohasining o‘rta asrlarda somoniylar, qoraxoniylar sulolalari davridagi siyosiy mavqeyi, vohaning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, yirik shaharlari va qishloq xo‘jaligi, hunarmandlik, savdo-sotiq ishlarining rivojlanganligi tarixiy manbalar va adabiyotlar asosi ochib berilganligiga oid ma‘lumotlardan Xalqaro “Oltin meros” XJF Qashqadaryo viloyati muassasiga “Qarshining o‘tmishidan taralgan yog‘du” nomli loyihani amalga oshirish uchun ajratilgan 22-22-12/3t-10-son Davlat grantida foydalanildi (Xalqaro “Oltin meros” xayriya jamoat fondining 01-23-06/05-23-son ma‘lumotnomasi). Bu O‘zbekistonda ilmiy-ma‘naviy merosni saqlash va uning targ‘ibotini amalga oshirishga, ma‘naviy-ma‘rifiy islohotlarning samaradorligiga xizmat qiladi.

vohada tasavvuf ta‘limotlarining tarqalishi, yetishib chiqqan mutasavvufilar faoliyati, ularning asarlari va ilgari surilgan g‘oyalariga to‘xtab o‘tilgan, shuningdek, o‘rta asrlarda Nasaf vohasida yozma adabiyot namunalari paydo bo‘lishi, tilshunoslik ilmining rivoji, bundan tashqari voha allomalarining aniq va tabiiy fanlar rivojiga qo‘shgan hissasi ham tarixiy manbalarga tayangan holda asoslanganligiga oid ma‘lumotlardan Xalqaro “Oltin meros” XJF Qashqadaryo viloyati muassasasiga “Qarshining o‘tmishidan taralgan yog‘du” nomli loyihani amalga oshirish uchun ajratilgan 22-22-12/3t-10-son Davlat grantida foydalanildi (Xalqaro “Oltin meros” xayriya jamoat fondining 01-23-06/05-23-son ma‘lumotnomasi). Bu Yangi O‘zbekiston sharoitida aholini yetuk allomalarimizning boy ilmiy-ma‘naviy merosi bilan yaqindan tanishtirish imkonini yaratgan.

voha allomalarining islom ilmlari – kalom (aqoid), tafsir, fiqh (islom huquqshunosligi) va hadisshunoslik sohalaridagi faoliyati, ilmiy va ma‘naviy merosi, ularning o‘rganilishi, bizning davrimizgacha yetib kelishi, shuningdek, Abul Mu‘in Nasafiyning “Turkiya qo‘lyozma asarlar fondi”da saqlanayotgan

“Tabsirat al-adilla” (2825-raqam ostida), “At-tamhid li qavoid at-tavhid” (1479-raqam ostida) va “Bahr ul-kalom” (1354-raqam ostida) asarlari qo‘lyozmalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlardan Abul Mu‘in Nasafiy majmuasi faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2024 yil 12 sentabrdagi 01-23-3392/1-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ma‘lumotlar Abul Mu‘in Nasafiy majmuasi va uning tarkibidagi muzey ma‘lumotlari hamda kutubxona fondidagi vo‘ha allomalari merosi haqidagi manbalarini ilmiy jihatdan boyitishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-nazariy konferensiyalarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqotning asosiy mazmuni va xulosalari jami 24 ta nashr qilingan ishlarda, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi OAK ro‘yxatidan o‘rin olgan respublika, shuningdek, xorij jurnallarida chop etilgan 3 ta maqola hamda 10 ta to‘plam va ilmiy-amaliy konferensiya materiallarida o‘z aksini topgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, tadqiqot qismi 138 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslanib, ishning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan. Shuningdek, dissertatsiyaning fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ko‘rsatilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan hamda ularning nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan. Bundan tashqari, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, natijalari, e‘lon qilingan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Markaziy Osiyoda ilk Uyg‘onish davri va IX-XII asrlarda Nasaf vohasida ijtimoiy-iqtisodiy hayot”** deb nomlanib, uning *birinchi paragrafida* Markaziy Osiyodagi ilk Uyg‘onish davri ilm-fani va madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlari tahlil etiladi.

Markaziy Osiyo hududi qadim zamonlardan buyon insoniyat madaniy taraqqiyotining markazlaridan biri ekanligi ilmiy jamoatchilik tomonidan e‘tirof etib kelinmoqda. So‘nggi davrda jahon miqyosida “Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi”, “O‘rta Osiyo sivilizatsiyasi”, “Turon yoki Turkiston sivilizatsiyasi” kabi tarixiy tushunchalar ilmiy tadqiqotlarda keng foydalanilmoqda²⁸.

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo hududida birinchi Renessans shakllandi va u butun jahon tan oladigan mashhur allomalarni yetishtirib bergan. Aniq fanlar sohasida Muhammad Xorazmiy (783–850), Ahmad Farg‘oniy (797–865), Abu Bakr Roziy (865–925), Abu Rayhon Beruniy (973–1048), Umar Hayyom (1048–1131),

²⁸ Мавлонов Ў. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. – Тошкент: Академия, 2008. – Б. 3.

falsafa sohasida Abu Nasr Forobiy (873–950), Abu Ali ibn Sino (980–1037), Aziziddin Nasafiy (XIII asr), tilshunoslikda Mahmud Zamaxshariy (1075–1144), Mahmud Koshg‘ariy (XI asr) barakali ijod qilishgan²⁹. Ularning jahonshumul ilmiy-ijodiy kashfiyotlari umumbashariyat taraqqiyoti rivojiga mislsiz hissa qo‘shdi.

Tarixiy manbalarda “islom madaniyatining oltin davri” deb e’tirof etiladigan bu davrda yetishib chiqqan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Abul Mu’in Nasafiy kabi ulug‘ mutafakkirlar butun musulmon olamiga dong taratgan edilar³⁰. Nasaf shahri, ayniqsa, Abu Mu’in Nasafiy yashagan davrda ilm-ma’rifat jihatidan Movarounnahrda eng yirik ilmiy-madaniy markazlar – Samarqand va Buxorodan keyingi o‘rinda turar edi³¹.

Markaziy Osiyoda ilk uyg‘onish davrning o‘ziga xosligi, undagi kuchli ijtimoiy-siyosiy va g‘oyaviy jarayonlar, xususan, Xorazm, Buxoro, Samarqand va Nasaf shaharlaridagi ijtimoiy muhit, ma’naviy hayot, ilm-fan rivoji, Xorazm Ma’mun akademiyasining vujudga kelishi O‘rta Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharqning boshqa xalqlari tomonidan asrlar davomida yaratilgan boy ilmiy va madaniy an’analarni umumlashtirishda va yanada taraqqiy ettirishda o‘z ifodasini topdi³².

IX asrda islom dini bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan hadis, tafsir, fiqh, kalom kabi ilmlar ham jadallik bilan rivojlana bordi. Markaziy Osiyo olimlarining bu sohalarda qoldirgan ilmiy merosi hozirga qadar ham eng ishonchli ilmiy manbalardan hisoblanadi. Manbalarda Movarounnahrda uch ming nafardan ortiq taniqli muhaddislar faoliyat olib borishganligi keltirilgan³³.

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoning ilm-fan va madaniyat rivojlangan markazlaridan biri Nasaf shahri hisoblanadi. Nasafda ilm ahli uchun maxsus qurilgan maskan bo‘lgan va u al-Qallos deb atalgan³⁴. Boshqa manbalarda X asr Nasafda, bugungi ta’bir bilan aytganda, xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya – majlisi tadrис o‘tkazilgani haqida ma’lumot uchraydi.

Xullas, IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda yuz bergan Birinchi Renessans hodisasi ilm-fan sohasida olamshumul o‘zgarishlarga olib kelgan. Bu davrda ko‘plab diniy va dunyoviy ilmlar rivojiga hissa qo‘shgan olimlar yetishib chiqqan.

Ushbu bobning *ikkinchi paragrafi* “IX-XII asrlarda Nasaf vohasidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot” deb nomlanadi.

IX asrda vohada xalq ommasi osoyishta yashab, hunarmandchilik, savdo-sotiq taraqqiy etgan. Iqtisodiy rivojlanish fiqh, hadis, gumanitar fanlar bo‘yicha olimlar yetishib chiqishiga sabab bo‘lgan. Somoniylar sulolasi davrida (865–999) Nasaf shahri ancha rivojlangan va o‘ziga xos madaniy markazlardan biriga aylangan.

²⁹ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 9-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ ДИН, 2005. – Б. 57.

³⁰ Саидов А., Бўриев О. Ўзбекистон Учинчи Ренессанс остонасида // “Hurriyat”, 2020 йил 20 декабрь.

³¹ Раҳимджанов Д. VIII – XII асрларда Самарқандда ҳадис илми тараққиёти (Абу Ҳафс Насафийнинг «Китоб ал-қанд фи марифати уламои Самарқанд» асари асосида): Тарих фан. номз. дисс... – Тошкент: ТИУ, 2003. – Б. 14.

³² Тўйчиев Б. Мовароуннахрда ilk уйғониш даври илмий-фалсафий таълимотлар ривожланишининг ўзига хос хусусиятлари // “Марказий Осиё Уйғониш даври илм-фан ва маданиятини тадқиқ этишининг долзарб муаммолари” мавзусидаги халқаро илмий анжумани материаллари. – Гулистон: Universitet, 2022. – Б. 7.

³³ Зиёдинов М., Жонионов М. Жаҳон тамаддуни тарихида Марказий Осиё Ренессанси // Халқ сўзи, 2021 йил 31 май.

³⁴ Абдулкарим ас-Самъоний. Насабнома. – Бухоро: Бухоро нашриёти, 2003. – Б. 244.

Somoniylar davlati taxt da'vogarlarining Nasafda turishi ham buning yaqqol isbotidir³⁵.

Somoniylar davrida Nasaf shahari alohida, xos lavozimlar ham joriy etilgan. Masalan, shaharda Abu Ali Muhammad ibn Ja'far al-Vazariy (X asr), Abu Is'hoq ibn Muhammad al-Mastiniy (XI asr)lar hokimlik qilishgan. Shuningdek, qonunshunos alloma Abu Bakr Muhammad ibn So'fyon al-Usbanikasiy (vaf. 986) ham Nasaf hokimi vazifasini bajargan³⁶. Bundan tashqari Nasaf shahrida Abu Ahmad Qosim ibn Muhammad Qantariy Nasafiy (vaf. 998) va Ali ibn Husayn Sardoriy (vaf. 980) bosh nozirlik lavozimida turishgan. Abu Ahmad Nasafiy keyinchalik Chag'oniyonda ham shu lavozimni egallagan. Nasaflik ulamo, allomalar X-XII asrlarda Buxoro, Samarqand, Marv, Saraxs kabi yirik shaharlarning bosh qozisi – sadrlik lavozimini bajarishgan³⁷.

IX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Nasafning yuksak sur'atlar bilan kengaya borishi, aholi sonining keskin oshishi, shahar hayotining shahristonga sig'may qolishi natijasida rabod shakllanadi va shahristonni barcha tomondan o'rab olgan. Qadimshunoslar fikricha, Nasaf shahri maydoni 70–100 (S.K. Kabanov), ba'zan esa 200 tanobni (B. Kochnev) tashkil etgan. Uning asosi qadimgi qatlamlarni o'z ichiga olgan, ilk o'rta asrlarda u qal'a bo'lib, IX-XII asrlarda jome' masjidini bo'lgan shaharga aylangan³⁸. X-XII asrlar Nasafning eng gullab-yashnagan davriga to'g'ri kelgan³⁹. Rus tadqiqotchisi O. Bolshakov hisobicha, Qashqadaryo vohasidagi mavjud 6 ta shahardan 2 tasida (Kesh va Nasafda) 30 ming nafardan 60 ming nafargacha kishi yashagan. Qolgan 4 tasida 5 ming nafardan 20 ming nafargacha, jami 6 ta shaharda 80 ming nafar kishi istiqomat qilgan⁴⁰.

Nasaf vohasi va uning poytaxt shahri haqida arab muarrixlari va sayohatchilarining asarlari g'oyat muhim manba hisoblanadi. Mashhur muarrix Abdulkarim Sam'oniyy (1113–1167)ning "Kitob al-ansob" ("Nasablar haqida kitob") asarini bu sohadagi eng noyob manba deyish mumkin⁴¹. Sam'oniyy XII asr o'rtalarida Xorazm, Buxoro, Samarqand, Kesh va Nasaf shaharlarida bo'lgan. Keshda 12 kun, Nasafda esa 2 oy yashagan. Olim Kesh va Nasafning 85 manzilini tilga olgan⁴².

Xullas, Nasaf vohasi dastlab somoniylar, keyinchalik qoraxoniylar, xorazmshohlar davlatining muhim iqtisodiy markazlaridan biriga aylangan. Nasafda dehqonchilik rivoj topgan, polizchilik, bog'dorchilik keng yoyilgan. Foydali qazilmalarning olinishi va qayta ishlanishi voha iqtisodiyoti rivojiga yo'l ochgan.

³⁵ Хасанов А. Жанубий Ўзбекистонда шаҳарлар шаклланиши ва ривожланишининг ўзига хос хусусиятлари (V-XIV асрлар биринчи ярми мисолида): Тарих фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Қарши, 2021. – Б. 111–112.

³⁶ Равшанов П. Қашқадарё тарихи. – Тошкент: Фан, 1995. – Б. 308–309.

³⁷ Равшанов П. Қарши тарихи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б. 247–248.

³⁸ Раимкулов А. Қашқадарё воҳаси ўрта аср шаҳарлари. – Қарши: Насаф, 2018. – Б. 37.

³⁹ Раимкулов А. Жанубий Суғднинг VIII-XIV асрлар даври тарихий топографияси. Тарих фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Самарқанд, 2018. – Б. 61–62.

⁴⁰ Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. – М., 1973.

⁴¹ Бўриев О. Насаф шаҳри муаррих Самъоний наздида // Қарши жаҳон цивилизацияси тизимида. – Қарши, 2006. – Б. 40.

⁴² Равшанов П. Қашқадарё тарихи. – Б. 329.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Nasaf vohasi allomalarining Markaziy Osiyo ilm-fani va ma’naviy hayoti ravnaqiga qo‘shgan hissasi”** deya atalib, uning birinchi paragrafi *“Voha allomlarining kalom (aqoid) ilmi rivojidadagi o‘rni”* deb nomlanadi.

“Kalom” so‘zi arab tilida lug‘aviy jihatdan “gap”, “nutq”, “bayon” kabi ma’nolarni anglatadi. Kalom ilmi “aqida ilmi” deb ham ataladi⁴³. Movarounnahrda kalom ilmining rivojlanishida Imom Moturidiyning (870–944) o‘rni nihoyatda katta bo‘lgan⁴⁴. Movarounnahrda XI asrda hanafiylik ta’limoti asosida kalom maktabi shakllanishida Samarqand ilmiy muhiti o‘z o‘rniga ega hisoblangan⁴⁵.

Imom Moturidiy ta’limotini rivojlanishida Nasaf vohasidan yetishib chiqqan olimlarning ham xizmatlari katta bo‘lgan. Jumladan, XI-XII asrlarda Abul Yusr Bazdaviy, Abul Hasan Ali ibn Muhammad Nasafiy, Abul Mu’in Nasafiy, Abu Hafs Nasafiy kabi olimlarning faoliyati Movarounnahrda moturidiylik ta’limoti rivojlanishi hamda qaror topishiga sabab bo‘ldi⁴⁶.

IX-X asrlarda yashab ijod etgan nasaflik alloma Abu Mute’ Makhul Nasafiy (vaf. 930 yil) o‘z davrining yetuk faqih, mutakallim va mutasavvif, muhaddis olimi sifatida tanilgan. Alloma haqidagi manbalarda uning “Kitob ur-radd alo ahl-al-bidai va-l-ahvo” asari mavjudligi ta’kidlanadi⁴⁷. Ulrix Rudolfning yozishicha⁴⁸, ushbu asarining, yaratilishi kalom ilmida tutgan o‘rni bilan alohida ajralib turadi⁴⁹.

Nasaf vohasidan yetishib chiqqan va kalom ilmining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan allomalardan yana biri Abul Yusr Bazdaviy hisoblanib⁵⁰, u dastlabki ta’limini Abul Hasan Muhammad Bazdaviydan olgan⁵¹. Bazdaviyning yozgan kitoblari turli sohalarga oid bo‘lib, ular orasida “Usul ad-din” (“Din asoslari”) asari muhim ahamiyatga ega. Mazkur asar 96 ta turli muhim masaladan tashkil topgan va moturidiya maktabi fikrlarining butun mohiyatini ochib berish hamda Movarounnahrda tarqalgan bid’at va xurofotlar ta’sirini kamaytirish uchun yozilgan⁵².

Kalom ilmining eng yirik namoyandalaridan biri Abul Mu’in Nasafiy (1027–1114) hisoblanadi. Abul Mu’in Nasafiy o‘zining samarali ijodi davomida kalom ilmiga oid 10 tadan ortiq asar yozib qoldirgan⁵³. Bizning davrimizgacha ulardan faqat uchasi, ya’ni “Tabsirat al-adilla”, “Kitob at-tamhid li qavoid at-tavhid” va

⁴³ Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Сунний ақийдалар. – Тошкент: Мовароуннаҳр, 2005. – Б. 8.

⁴⁴ Зиёдов Ш. Абу Мансур Мотуридий. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – Б. 3–4. (40 б.)

⁴⁵ Rudolph U. Al-Māturīdī and the Development of Sunnī Theology in Samarqand. – Leiden, New York, Koln: E.J. Brill, 1997. – P. 20.

⁴⁶ Жабборов Н. Мотуридия – нақл ва ақл уйғунлиги // Имом Бухорий сабоқлари, 2002 йил 4-сон. – Б. 286–287.

⁴⁷ Абдуллоҳ Абдулҳамид Саад. Ўрта Осиё олимлари қомуси. – Тошкент, 2008. – Б. 95.

⁴⁸ Рудольф У. Ал-Мотуридий ва Самарқанд суннийлик илоҳиёти (қисқартирилган нашр). Рус ва немис тилларидан Раъно Қобулова ва Ғанижон Маҳмудов таржимаси. – Тошкент, 2002. – Б. 83–84.

⁴⁹ Ўзбекистон буюк алломалар юрти. У.Уватов таҳрири остида. – Тошкент: Маънавият, 2010. – Б. 271.

⁵⁰ Аллоқулов А. Абул Юср Паздавий. Илмий рисола. – Тошкент: Mahalla va oila nashriyoti, 2022. – Б. 4–5.

⁵¹ Оқилов С. Мовароуннаҳр мутакаллимлари илмий мероси. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Хилол-Нашр, 2019. – Б. 87.

⁵² Оқилов С. Калом (Ақоид). Ўқув қўлланма. – Тошкент: Hilol-Nashr, 2019. – Б. 31.

⁵³ Уватов У., Оқилов С., Даминов Э. Мотуридия таълимоти ва Абу Муин Насафий илмий мероси. Масъул муҳаррир У.Алимов. – Тошкент: Movarounnahr, 2018. – Б. 123.

“Bahr ul-kalom fi ilmi-l-kalom” nomli asarlari yetib kelgan va nashr etilgan⁵⁴. Xususan, “Tafsirat al-adilla” asarining kalom ilmiga oid yozilgan boshqa asarlardan ustun tomoni shundaki, unda nafaqat kalomiy masalalar, balki movarounnahrlik bir qancha mashhur mutakallimlarning hayotlari haqida ham qimmatli ma’lumotlar berilgan⁵⁵.

Shuningdek, Abu Hafs Nasafiyning “Aqoid” risolasi⁵⁶, Abul Barakot Nasafiyning “Umdat al-aqidat al-ahli-s-sunna va-l-jamo’a”⁵⁷, “Bahr ul-kalom” (“Kalom ilmi dengizi”), “Umdat al-aqoid” (“Aqida asosi”), “Al-Itimod fi-l-i’tiqod” (“E’tiqoddagi tayanch”) nomli asarlari asarlari moturidiylik ta’limoti rivojida muhim manbalardan hisoblanadi⁵⁸.

Xullas, Nasaf vohasidan yetishib allomalarning kalom ilmiga oid asarlari nafaqat yurtimizda, balki butun musulmon olamida ma’lum va mashhur bo’lib, bugungi kunda ham islom ilm markazlarida asosiy manbalardan hisoblanadi.

Ushbu bobning *ikkinchi paragrafi* “*Nasafiy allomalarning tafsir ilmidagi faoliyati tarixi va ular qoldirgan merosning ahamiyati*” deb nomlanadi.

IX asrda Nasafda yashagan bir qator allomalar Qur’onga tafsirlar yozishgan. Ulardan biri Abu Is’hoq Ibrohim ibn Ma’qal ibn al-Hajjoj Nasafiydir (vaf. 907). Nasaf shahri qozisi bo’lgan Ibrohim Nasafiy 5 ta asar yozgan bo’lib, ular orasida “Tafsir ul-Qur’on” (“Qur’on tafsiri”) asari mashhurdir⁵⁹. Bu kitobning faqat nomi ma’lum bo’lib, bizning davrimizga ushbu asar saqlanmagan. Abu Is’hoq Ibrohim Sonjaniy (vaf. 908) ham tafsir yozgan bo’lib⁶⁰, allomaning “Kitob at-tafsir” (“Tafsir kitobi”) kitobi tafsir ilmida dastlabki asarlardan biri hisoblanadi⁶¹.

Hanafiy mazhabining mashhur olimlaridan biri bo’lgan Abul Yusr Bazdaviy Qur’oni karim tafsiriga bag’ishlangan “Kashf ul-astor” nomli 120 qismli asar yaratgan bo’lib⁶², uning har bir qismi muhtasham kitobdan iborat bo’lgan.

Abu Hafs Nasafiy (1070–1143) tafsir va Qur’on ilmiga oid bir qancha asarlar yaratgan. Alloma o’zining “Matla’ an-nujum” asarining “Qur’on” bobida tafsir ilmini Nasaf vohasining ko’zga ko’ringan Nuhiy sulolasi vakillaridan biri Abu Muhammad Ismoil ibn Muhammad an-Nuhiy (1033–1089)dan o’rganganligini

⁵⁴ “Табриратул адилла фи усулид дин” (Дин асослари далилларининг баёни). Таржимон У.Уватов ва бошқ. I–IV жилд. – Тошкент: Movarounnahr, 2018. – 440 б.; Ат-тамхид ли қавоиди-т-тавхид (Тавхид қоидалари муқаддима). Нашрга тайёрловчи И.Даминов – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2017. – 248 б.; Бахрул калом. – Тошкент: Ўзбекистон халқаро ислом академияси, 2022. – 144 б.

⁵⁵ “Табриратул адилла фи усулид дин” (Дин асослари далилларининг баёни). Таржимон У.Уватов ва бошқ. I жилд. – Тошкент: Movarounnahr, 2018. – 440 б.

⁵⁶ Аллоқулов А. Мотуридия таълимотини “Ақоид Насафий”да акс этиши // Дунёвийлик ва динийлик ёшлар нигоҳида. Илмий-амалий анжуман. – Тошкент, 2010. – Б. 173–175.

⁵⁷ Cureton W. Pillar of the creed of the Sunnites. – London: Printed for the society for the publication of oriental texts, 1843. – P. 53–59; Heffening W. An-Nasafi // Encyclopedic de Islam. – Paris, 1993. T.VII. – P. 969.

⁵⁸ Махсудов Д. Абул Баракот Насафий ҳаёти ва илмий ижоди. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2013. – Б. 60.

⁵⁹ Ўрта Осиё олимлари қомуси. Тузувчи Абдуллоҳ Абдулхамид Саад. – Тошкент: Имом Бухорий республика илмий-маърифий маркази нашриёти, 2007. – Б. 357.

⁶⁰ Шамсиддин Камолиддин. “Китаб ал-ансаб” Абу Са’да ‘Абд ал-Карима ибн Мухамеда ас-Сам’ани как источник по истории и истории культуры Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1993. – С. 183.

⁶¹ Ўрта Осиё олимлари қомуси. – Б. 194.

⁶² Ўрта аср Шарқ алломалари ва мутафаккирларининг тарихий-фалсафий мероси энциклопедияси. – Самарқанд: Имом Бухорий халқаро маркази нашриёти, 2016. – Б. 289.

bilish mumkin⁶³. Nasafiyning tafsir ilmiga oida ikkinchi asari “Tafsiri Nasafiy” (“Nasafiy tafsiri”) bo‘lib, Qur‘on ma‘nolarining fors tilidagi tarjimasidir. Bu kitob eronlik tadqiqotchi Azizulloh Juvayniy tomonidan Tehronda 1998 yili nashr qilingan⁶⁴. Nasafiyning tafsirga oid uchinchi asari “at-Taysir fi-t-tafsir” asari bo‘lib, u manbalarda “at-Taysir fi ilmi-t-tafsir” (“Tafsir ilmidagi yengillik”) deb ham nomlangan⁶⁵. Tafsir 4 jilddan iborat bo‘lib, Abu Hafs Nasafiy o‘z asarida Qur‘onning 100 ta nomini alohida sanagan, har bir suradagi so‘z va harflar sonini keltirib o‘tishi bilan tafsir ilmida o‘ziga xos uslubga asos solgani ochib berilgan⁶⁶.

Abul Barakot Nasafiy (1232–1310)ning “Madarik at-tanzil va haqiqat ta’vil” (Qur‘on mohiyati va ta’vil haqiqatlari) asari tafsir ilmidagi mo‘tabar kitoblardan biridir⁶⁷. Mazkur asar “Tafsiri Nasafiy” nomi bilan tanilgan⁶⁸. “Tafsiri Nasafiy” asari “Tafsiri Bayzoviy”, “Tafsiri Jalolayn”, “Tafsiri Ibn Kasir” kitoblari qatorida darslik sifatida madarasa ta’limida asosiy tafsir risolalaridan biri hisoblanadi⁶⁹.

Xullas, tafsir ilmining yuksak pog‘onaga ko‘tarilishiga Nasaf vohasi allomalari o‘zlarining beminnat zahmatli mehnatlari bilan katta hissa qo‘shganlar.

Ikkinchi bobni *uchinchi paragrafi* “*Fiqhiy ilmlar rivojida voha allomalari merosining ahamiyati*” deb nomlanib, unda Nasaf vohasi allomalari fiqh (islom qonunshunosligi) ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

VIII asr oxiri – IX asr boshlarida Movarounnahrda hanafiya asosida Buxoro va Samarqand shaharlarida Movarounnahr fiqh maktabi tashkil topgan⁷⁰. “Fiqh” – arabcha so‘z bo‘lib, “bilmoq”, “tushunmoq” yoki “topmoq” degan ma‘nolarni anglatib, qonun-qoida va huquqlarni biluvchi olimni “faqih” deb ataydi⁷¹.

IX-XII asrlarda Movarounnahrda yashab ijod etgan fiqh allomalarining soni ancha ko‘p bo‘lgan. Jumladan, Abdulkarim Sam‘oniy “Kitob al-Ansob” asarida 370 nafarga yaqin faqih haqidagi ma‘lumotlarni keltirgan, Mahmud ibn Sulaymon Kafaviy esa o‘zining “Kataib ‘alam al-axyar” asarida ayni shu davrda yashab o‘tgan 71 nafar faqihning nomini zikr etadi⁷². XI-XIII asrlarda Movarounnahrda fiqh ilmi yuksak bosqichiga yetdi. Shu mavzuda izlanish olib borgan turkiyalik olim Yu.Z. Kavakji qoraxoniylar davri haqida so‘z yuritayotib, bu hududda

⁶³ Мухаммадаминов С. Абу Хафс ан-Насафийнинг “Матлаъ ан-нужум ва мажмаъ ал-улум” асари ва унинг Марказий Осиё ислом илmlари ривожидида тутган ўрни (XI аср охири – XII аср ўрталари). – Б. 44.

⁶⁴ Абу Хафс Насафий. Тафсири Насафий. Ба тасхихи дуктур Азизуллоҳ Жувайний. Интишорот жунайд фарханги Эрон. 2 жилдлик. – Техрон, 1998. – 1356 б.

⁶⁵ Уватов У. Самарқанд уламолари // Донолардан сабоқлар. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994. – Б.64.

⁶⁶ Ўрта аср Шарқ алломалари ва мутафаккирларининг тарихий-фалсафий мероси энциклопедияси. – Б. 256–260.

⁶⁷ Махсудов Д. Абу-л-Баракот ан-Насафининг тафсир илмида тутган ўрни.: Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2008. – Б. 77.

⁶⁸ Ислам энциклопедияси. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон халқаро ислом академияси нашриёти, 2020. – Б. 431–434.

⁶⁹ Махсудов Д. Муфассир олим // Имом Бухорий сабоқлари, 2006 йил 2-сон. – Б. 104–105.

⁷⁰ Абдулҳаким Шаръий Жузжоний. Фикх илми ривожидида Марказий Осиё фақиҳларининг ўрни // Тошкент ислом университетининг илмий – таҳлилий Ахбороти, 2007 йил 3-сон. – Б. 18–20.

⁷¹ Каттаев К., Каттаева Г. Буюк ҳуқуқшунос алломалар (Фикх, ҳадис, тавсир, калом илми алломалари). – Тошкент: Қақнус, 2020. – Б. 28.

⁷² Муминов А.К. Мавераннахрская школа фикха (IX-XIII века) // Общественные науки в Узбекистане. 1990. – № 10. – С. 40.

uch yuz nafarga yaqin faqih yetishib chiqqanligi, yigirma tadan ortiq fatvolar majmuasi, uch yuz ellik tadan ziyod fiqhiy asarlar yaratilganligini qayd etadi⁷³.

VIII asr oxiri – IX asr boshlarida Nasafda hadisshunoslik va fiqh maktablari vujudga kelgan. Movarounnahrning mashhur shaharlaridan biri Nasaf shahri turli diniy va dunyoviy ilmlarini o‘zida mujassam etgan zabardast olimlarni voyaga yetkazgan. Nasaf shahri o‘zining faqihlari bilan ko‘proq shuhrat topgan. Ulardan Abu Mute’ Makhul Nasafiy (vaf. 930), Abu Ali Husayn Nasafiy (vaf. 1034), Abu Hafs Nasafiy (1070-1143), Abulfazl Muhammad Burhon Nasafiy (1201-1281)ni zikr etish mumkin⁷⁴.

Muhammad Bazdaviyning fiqh ilmiga oid “Kitob al-mabsut”, “Risola fi qiro’at al-musolli”, Muhammad ibn Hasan Shayboniyning (709-805) “al-Jomi’ as-sag‘ir” asariga yozgan “Sharh al-jomi’ as-sag‘ir” nomli sharhi, “az-Ziyodot”, “Ziyodot az-ziyodot” asarlarini yaratgan. Shuningdek, ayrim manbalarda allomaning “G‘ino’ al-Fuqaho” va “Sharh al-jomi’ al-kabir” kabi asarlari mavjudligi haqida ham ma’lumot berilgan bo‘lsa-da, bu asarlar bizning davrimizgacha yetib kelmagan⁷⁵.

Abu Hafs Nasafiy esa “Muftiy as-saqalayn”, ya’ni “ham insonlar, ham jinlar uchun fatvo berish salohiyatiga ega olim” nomi bilan mashhur bo‘lgan⁷⁶. Allomaning fiqh sohasida yozilgan asarlari qatorida “Mashori’ ash-sharo’i” asari bo‘lgan. Allomaning salmoqli fiqhiy asarlaridan yana biri “al-Hasoil fi-l-masoil” kitobi hisoblanadi⁷⁷.

Abul Barakot Nasafiy islom qonunchiligi bo‘yicha bir qancha asarlar yozgan va qator mualliflarning kitoblariga sharhlar bitgan. Jumladan, allomaning 5 ta fiqhga va 3 ta usul al-fiqhga oid asarlari mavjud⁷⁸. Uning fiqhiy asarlari orasida “Kanz ad-daqiq” (“Nozik masalalar xazinasi”) asari hisoblanib, islom huquqi bo‘yicha “Hidoya” kitobidan keyingi o‘rinda turadi⁷⁹.

Xullas, voha allomalari fiqh ilmi rivojiga munosib hissa qo‘shib, ular yaratgan asarlar ilgari surilgan masalalar nafaqat o‘z davri uchun, balki bugungi kunda ham o‘zining ahamiyatini zarracha yo‘qotmagan.

Ikkinchi bobning *to‘rtinchi paragrafi* “Nasaf vohasidagi hadis maktablari va muhaddislar faoliyati” deb nomlanib, unda Markaziy Osiyoga hadis ilmining kirib kelishi, Nasaf vohasi allomalari hadisshunoslik bo‘yicha qoldirgan merosi haqida so‘z yuritiladi.

Hadislar islom dinining Qur’oni karimdan keyingi ikkinchi asosiy manbasi sifatida musulmon xalqlarning dunyoqarashi, tafakkur tarzi hamda qadriyatlarining shakllanishiga ulkan ta’sir ko‘rsatgan. IX asrda Movarounnahrdagi hadis maktablari

⁷³ Kavakci Yusuf Ziya. XI ve XII asirlarda Karahaniylar davrinde Mavara’ al-Nahr Islam Nukukcilari. – Ankara, 1976. – B. 305.

⁷⁴ Мухаммад Носир. Насаф ва Кеш алломалари (IX – XX асрлар). – 128 б.

⁷⁵ Brockelmann С. Geschichte der Arabischen Literatur. Bd I. – Leiden, 1943. – P. 373.

⁷⁶ Абдулҳаким Шаръий Жўзжоний. Ислом ҳуқуқшунослиги ва ҳанафий мазҳаби тараққиётида Ўрта Осиё фақиҳларининг ўрни: Юридик фанлар доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2005. – Б. 252.

⁷⁷ Мухаммадаминов С. Абу Ҳафс ан-Насафийнинг “Матлаъ ан-нужум ва мажмаъ ал-улум” асари ва унинг Марказий Осиё ислом илмлари ривожига тутган ўрни (XI аср охири – XII аср ўрталари). – Б. 46.

⁷⁸ Ислом энциклопедияси. 1-жилд. – Б. 431–434.

⁷⁹ Юсупов Ж. Абул Баракот Насафийнинг “Канз уд-дақоик” асарининг тузилиши // Баркамол авлод – келажак пойдевори. 2-қисм. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2009. – Б. 106–111.

haqida qimmatli ma'lumotlar Abdulkarim Sam'oniyning "Kitob al-Ansob" asarida keltirilgan. Asarda mintaqa shaharlaridagi katta hadis maktablari va unda faoliyat ko'rsatgan buyuk muhaddislar to'g'risida ma'lumotlar mavjud⁸⁰.

O'rta asrlarda Sharqning to'rtta hadis ilmi markazlaridan va sakkizta madina maqomini olgan shaharlardan biri Nasaf shahri hisoblanadi. Somoniylar davrida Nasaf yirik hadis markazlaridan sanalgan⁸¹.

Nasafdagi hadis ilmining taraqqiyoti haqida manbalardan asosan Abu Hafs Nasafiyning "Al-qand fi zikri ulamoi Samarqand" hamda Abdulkarim Sam'oniyning "Kitob al-Ansob" asarlarida ma'lumot berilgan. Bu manbalarning bergan ma'lumotlariga ko'ra, VIII asrdan to XII asrgacha o'tgan vaqt mobaynida Movarounnahrda 3000 nafardan ortiq ko'zga ko'ringan muhaddislar yashab, o'z faoliyatlarini olib borishgan. Ulardan 400 nafardan ortig'i Nasafda faoliyat olib borgan muhaddislar hisoblangan⁸².

Buyuk muhaddis Imom Buxoriy (810–870) o'zining ilmiy safarlari davomida Nasaf shahrida ham bo'lgan va u yerdagi hadis ilmining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Imom Buxoriy Nasafda turgan vaqtida undan Abu Zayd Tufayl ibn Zayd, Abu Is'hoq Ibrohim ibn Ma'qil an-Nasafiy as-Sanjoniy kabi qator ko'zga ko'ringan muhaddislar ta'lim olishdi⁸³. Ma'lum muddat Keshda ham ilm-fan bilan shug'ullangan.

Nasaf vohasida faoliyat ko'rsatgan muhaddislar haqida ikkita maxsus asar yaratilgan. Ulardan birinchisi, Abul Horis Asad ibn Hamdavayh al-Varsiniyning "Mufoxarot ahl Kiss va Nasaf" ("Kesh va Nasaf ahli iftixorlari"), ikkinchisi Abul Abbos Ja'far ibn Mustag'firiyning "Tarixi Nasaf" kitoblari bo'lib, ularda nasaflik muhaddislar hayoti haqida ma'lumot beriladi⁸⁴.

Nasafda boshqa ilmlar bilan bir qatorda hadis ilmi VIII asr oxirlari – IX asr boshlaridan rivojlana boshlagan. Bu davrda Nasafda Ahmad ibn Muhammad Tadayoniy, Hammod ibn Shokir Nasafiy, Abdulmo'min ibn Xalaf Nasafiy, Lays ibn Nosir Kojariy, XI asrda Abdulaziz ibn Muhammad Nasafiy, Muhammad ibn Baladiy, Hasan ibn Ali Hammodiy Naxshabiy va boshqalar samarali faoliyat ko'rsatib turgan⁸⁵.

Abu Ubayd ibn Abul Hasan Nasafiyning "Kitobu g'arib al-hadis" ("G'arib hadislar kitobi") kitobi Nasafda yaratilgan hadis kitoblaridan biri hisoblanadi⁸⁶. Nasafda hadis ilmi rivojiga ayrim sulolaviy oilalar ham katta hissa qo'shishgan. Jumladan, Abu Zayd Tufayl ibn Zayd Nasafiyning oilasi vohadagi ulamolar

⁸⁰ Камолиддинов Ш. Китаб ал-ансаб... – Б. 155.

⁸¹ Равшанов П. Қашқадарё тарихи. – Б. 360.

⁸² Раҳимжонов Д. Абу Ҳафс ан-Насафийнинг "Китоб ал-қанд фи маърифат уламо Самарқанд" асари Самарқанд ҳадис илми тарихи бўйича муҳим манба. – Б. 12.

⁸³ Раҳимжонов Д. Имом Бухорий ва Насаф ҳадис мактаби // Имом Бухорий сабоқлари, 2000 йил 2-сон. – Б. 91–93.

⁸⁴ Умаров Ш. Абдулҳамид Кеший илмий меросининг VIII-IX асрлар Мовароуннаҳр ҳадис илми ривожига ўрни: Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2018. – Б. 41–42.

⁸⁵ Камалиддинов Ш. Китаб ал-ансаб... – С. 164.

⁸⁶ ас-Самъоний. Насабнома (ал-Ансоб). – Б. 306.

sulolasining yorqin namunasi bo‘lib, ushbu xonadondan ko‘plab muhaddislar yetishib chiqqan⁸⁷.

Xullas, Nasaf vohasida hadis ilmi bilan shug‘ullangan to‘rt yuz nafardan ortiq muhaddislar yashagan va ular ilmiy salohiyati, yuksak ma‘rifati va o‘zlaridan qoldirgan ilmiy-ma‘naviy merosi bilan ilm-fan sohasida munosib iz qoldirgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Vohada ma‘naviy hayot, adabiy va ilmiy bilimlar ravnaqi”** deb atalib, *uning birinchi paragrafi* – *“Nasaf vohasida tasavvuf ta‘limotining yoyilishi tarixi va mutasavvuflar faoliyati”* deb nomlanadi.

Tasavvuf ta‘limotlari uzoq asrlar davomida mintaqa xalqlari ma‘naviy olamini boyishiga beqiyos xizmat qilgan. Tasavvuf atamasi “suvf” – “jun”, “po‘stin” so‘zidan olingan⁸⁸. VIII-IX asrlar Islom tasavvufi ilm sifatida shakllangan va tamoyillari ishlab chiqilgan⁸⁹.

IX-XI asrlarda Misr, Damashq, Bag‘dod va Nishopur so‘fiylik maktablari bilan birga Markaziy Osiyo tasavvuf maktablari ham vujudga kelgan⁹⁰. Nasaf vohasida shakllangan zohidlik maktabi Markaziy Osiyoda VIII-IX asrlarda mavjud bo‘lgan – Marv, Buxoro va Samarqand diyorlarida shakllangan va rivojlangan to‘rtta asosiy zohidlik maktablaridan biri hisoblangan⁹¹. Uning asosiy vakillari Abu Turob Naxshabiy va Mu‘az ibn Ya‘qub Kosoniylar hisoblangan.

Abu Turob Naxshabiyning to‘liq ismi Askar ibn Husayn Naxshabiy hisoblanadi. Naxshab (Nasaf) shahrida 806 yilda tavallud topgan⁹². Alloma Buxoro va Saraxs madrasalarida tahsil olgan. Fiqh ilmini Ahmad ibn Hanbalidan o‘rgangan. Basrada shayx Hasan Basriydan ta‘lim olgan va uning qo‘lidan hirqa kiygan⁹³. Muhammad Siddiq Rushdiy u zotni “ogohlikdan umid qiluvchilarning pahlavoni”, “taqvo osmonining oyi”, “haqiqat ilmining orifi”, “qutbi zamon” nomlar bilan o‘z asarida zikr qiladi⁹⁴. Abu Turob Naxshabiy 860 (hijriy 245) yilda Basrada vafot etgan⁹⁵.

Abu Abdurahmon Mu‘az ibn Ya‘qub Nasafiy al-Kosoniy (IX asr) mashhur tasavvuf allomasi bo‘lib, Sam‘oniy uning 834-yili jome‘ masjidida, bundan tashqari “Sikkat uz-zuhhd” (“Zohidlar ko‘chasi”) deb nomlanuvchi mavzeda rabot, quduq va tahoratxona qurdirganligi, keyinchalik bu ko‘cha “Abu Abdurahmon az-Zohid ko‘chasi” deb ham atalganligini yozib qoldirgan⁹⁶.

X-XI asrlarda Nasaf vohasida Abu Bakr Abd ibn Abul Abbos Yoniy Nasafiy (vaf. 939), Abul Badi‘ Ahmad ibn Muhammad Makhuliy (vaf. 943), Abu Ja‘far

⁸⁷ Раҳимжонов Д. “Абу Зайд Насафий”. – Исломушунослик комусий луғати. – Тошкент: Мовароуннахр, 2013. – Б. 33.

⁸⁸ Исмоилов М., Шаропов А. Тарих атамалари луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б. 420.

⁸⁹ Усмон Турар. Тасаввуф тарихи. Таржимон Нодирхон Ҳасан. – Тошкент: Истиклол, 1999. – Б. 53.

⁹⁰ Раҳимов К. Мовароуннахр тасаввуфи тарихи: таълимотнинг шаклланиши ва тизимлаштирилиши (VIII-XI асрлар). – Тошкент: Akademnashr, 2020. – Б. 12.

⁹¹ Ўша манба. – Б. 46.

⁹² Райҳонов Исмоил ҳожи. Абу Туроб ан-Нахшабий. – Қарши: Насаф, 2018. – Б. 3–4.

⁹³ Ҳамиджон Ҳомидий. Тасаввуф алломалари. Масъул муҳаррир З. Исҳоқова. Тўлдирилган нашри. – Тошкент: O‘zbekiston НМИУ, 2016. – Б. 70–73.

⁹⁴ Муҳаммад Сиддиқ Рушдий. Авлиёлар султони – туронлик валийлар. Тўплаб нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи Икромиддин Остонақулов. – Тошкент: Book Media nashr, 2019. – Б. 191–199.

⁹⁵ ас-Самъоний. Насабнома (ал-Ансоб). – Б. 311.

⁹⁶ Абу Саъд Абдулкарим ибн Муҳаммад ибн Мансур ат-Тамимий ас-Самъоний. Ал-Ансоб (араб тилида). Сўзбоши ва иловалар муаллифи Абдуллоҳ Умар ал-Борудий. Маданий тадқиқотлар маркази. 5-жилдлик. 5-жилд. – Байрут: Дор ул-жинон, 1408/1988. – Б. 473.

Muhammad ibn Nazr al-Muaddib az-Zohid Mujduvoniy (X asr), Abul Hasan Humayd ibn Naim al-Faqih Anshamisniy (vaf. 987), Abul Hasan Nasr ibn Ahmad Homid al-Homidiy (vaf. 1006), Abu Muhammad Usmon ibn Muhammad Nasafiy Muvoniy (vaf. 1032), Abu Nasr Ahmad ibn Nasr al-Yag'naviy (vaf. 1069) kabi so'fiylar yashab o'tgan⁹⁷.

Abul Mute' Makhul Nasafiy (vaf. 930 y.) tasavvuf ilmiga oid "Kitob fi-t-tasavvuf" ("Tasavvuf haqida kitob") asarini yozgan. Asar tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, muallifning so'fiylik qarashlari o'z aksini topgan⁹⁸.

Xullas, Markaziy Osiyoda vujudga kelgan tasavvuf maktablari mintaqa aholisning ma'naviy hayotida beqiyos o'rin tutgan. Nasaf vohasidagi tasavvufiy qarashlar Xuroson, Buxoro va Samarqand so'fiylik maktablari bilan o'zaro hamkorlik aloqalari natijasida anchagina taraqqiy etgan.

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafi – "IX-XII asrlarda Nasaf vohasida adabiy va ilmiy hayot" deb nomlanib, unda adabiyot va ilmiy bilimlar sohasi voha allomalari ilmiy merosi haqida fikr-mulohazalar yuritiladi.

Nasafda adabiyotning shakllanishi o'zbek adabiyotining umumiy taraqqiyoti tarixi bilan chambarchas bog'liq. IX – X asrlardayoq Nasafda yozma adabiyot namunalari vujudga kelgan⁹⁹. XI asrlarda Nasafdan yetishib chiqqan shoirlar, olimlar an'anaga ko'ra, asosan fors tilida ijod qilishgan¹⁰⁰.

X asr oxirlarida turkiy sulola – qoraxoniylar hukmdorlari davrida fors tilida ijod qilish an'ana tusini olgan edi. Turk hukmdorlari forsiy tilda ijod qiluvchi shoirlarga rahnamolik qilar, hatto o'zlari ham bu tilda she'rlar yozar edi¹⁰¹. XI-XIII asrlarda yashagan bir qancha nasaflik adiblar (masalan, Shahobiddin Nasafiy, Abu Hafs Nasafiy, Hakim So'zaniy va boshqalar), asosan, fors tilida ijod qilgan. Shu tariqa, fors tilidagi adabiyotning rivojiga turkiy xalqlar ham katta hissa qo'shgan¹⁰².

O'rta asrlarda Nasaf vohasidan yetishib chiqqan bir qancha olimlar adabiyot va tilshunoslikka oid faoliyat bilan shug'ullanishgan. Jumladan, Abul Horis Asad ibn Hamdavayh al-Varasiniy (vaf. 928)ning "Al-Bo'ston" ("Bo'ston"), "al-Ajoib" ("Ajoyib"), "Axbor ul-Hasan val-Husayn" ("Hasan va Husanning xabarlarini"), "al-Maqtal" ("Jangnoma"), "Mafoxiratu ahlu Kesh va Nasaf" ("Kesh va Nasaf ahlining faxrli kishilari") kitoblari shular sirasidan hisoblanadi. Allomaning "Kitab an-nasab" ("Nisbalar haqida kitob") deb nomlangan asari esa tilshunoslikka oid bo'lgan¹⁰³.

Abu Mute' Makhul Nasafiy taniqli shoir va adib hisoblanib¹⁰⁴, uning "Al-lu'luyot fi mavoiz" asari bizga qadar yetib kelgan. U 153 bobdan iborat bo'lib, kitobda pand-nasihatlari, hadislar va allomaning o'zi yozgan she'rlar

⁹⁷ Мухаммад Носир. Насаф ва Кеш алломалари (IX-XX асрлар). – 128 б.

⁹⁸ Мухаммад Носир. Насаф ва Кеш алломалари (IX-XX асрлар). – Б. 25.

⁹⁹ Равшанов П. Адабий саҳифалар. – Б. 55.

¹⁰⁰ Бартольд В.В. Общие работы по истории Средней Азии... – Соч., т. 2, ч. 1. – М., 1963. – С. 465.

¹⁰¹ Стеблева И.В. Развитие тюрских поэтических формы XI века. – Москва, 1971. – С. 4.

¹⁰² Равшанов П. Адабий саҳифалар. – Б. 19.

¹⁰³ Носир Мухаммад. Насаф ва Кеш алломалари (IX-XX асрлар). – Б. 24–25.

¹⁰⁴ Базарбаева Н. Абу Муттиъ Макхул Насафий. Илмий рисола. – Тошкент: Mahalla va oila nashriyoti, 2022. – Б. 11. (36 б.)

jamlangan¹⁰⁵. Asarning 1868-yili ko‘chirilgan o‘zbekcha tarjimai Rossiyadagi M.Ye. Saltikov-Shchedrin nomidagi kutubxonada saqlanadi. Forscha tarjimaning bir nusxasi O‘z FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining Qo‘lyozmalar fondida 2662/1-ashyoviy raqam ostida saqlanadi¹⁰⁶.

Abu Usmon Said ibn Ibrohim Nasafiy (vaf. 952) taniqli tilshunos va adabiyotshunos olim hisoblanib, Abdulkarim Sam‘oniy uning “Al-adab vash-shi‘r” (“Adabiyot va she‘riyat haqida kitob”) asari mavjudligini qayd etib o‘tgan¹⁰⁷. Abul Abbos Ja‘far ibn Muhammad Mustag‘firy Nasafiy (962–1041) “Nasaf va Kesh tarixi” nomli asarida alloma nasaflik va keshlik 43 nafar olim, shoir va din arboblari haqida hikoya qilgan¹⁰⁸.

Shamsiddin Muhammad ibn Ali So‘zaniy (Hakim So‘zaniy) 1091-yili Nasaf shahrida tug‘ilgan. XIII asrda yetishgan buxorolik adib va adabiyotshunos Muhammad Avfiy “Lubob ul-albob” asarida shoir So‘zaniy ijodiga yuksak baho beradi¹⁰⁹. Shoirning 10–12 ming misrani o‘z ichiga olgan she‘rlar devoni Dushanbe shahrida saqlanadi. Toshkentdagi Sharqshunoslik institutining Qo‘lyozmalar fondidagi “Majma‘ al-g‘aroyib” tazkirasida ham So‘zaniy ijodidan namunalar mavjud¹¹⁰.

XII asrda faoliyat olib borgan nasaflik ijodkorlardan biri Muayididdin Nasafiy bo‘lib, Muhammad Avfiy o‘zining “Lubob ul-albob”¹¹¹ tazkirasida Muayididdin Nasafiyning “Ustod ush-shuaro” (“Shoirilar ustodi”) deb atagan. Muayididdin Nasafiy asarlari o‘z davrida nihoyatda mashhur bo‘lgan. “Lubob ul-albob”da shoirning ikki qasidasi, bir qit‘asi va bir ruboiysi keltirilgan¹¹².

Xullas, IX asr oxiri – X asr boshlarida Nasafda yozma adabiyot shakllanib, voha ijodkorlari o‘z faoliyatlarini dastlab arab tilida, keyinchalik esa fors tilida olib borishgan.

XULOSA

Ushbu “IX-XII asrlarda Nasaf vohasi allomalarining Markaziy Osiyo ilm-fani va madaniyati ravnaqiga qo‘shgan hissasi” mavzusidagi dissertatsiya tadqiqotini bajarish natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

1. Markaziy Osiyo mintaqasi qadimdan sivilizatsiya o‘choqlaridan hisoblangan. Keyingi yillarda olib borilayotgan izlanishlarga asoslanib, “Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi”, “O‘rta Osiyo sivilizatsiyasi”, “Turon yoki Turkiston sivilizatsiyasi” kabi tarixiy tushunchalar jahon miqyosidagi ilmiy tadqiqotlarda keng foydalanilmoqda.

¹⁰⁵ Паздавий Абу-л-Йуср Муҳаммад. Китоб усули-д-дин / Х. Питер нашри. – Қоҳира: Дор ихйау-л-кутуби-л-арабийя, 1383/1963. – Б. 241

¹⁰⁶ Носир Муҳаммад. Насаф ва Кеш алломалари (IX-XX асрлар). 2-нашр. – Б.25.

¹⁰⁷ Ўша манба. – Б. 27.

¹⁰⁸ Ўша манба. – Б. 27-28.

¹⁰⁹ Равшанов П. Адабий саҳифалар. – Б. 67.

¹¹⁰ Носир Муҳаммад. Насаф ва Кеш алломалари (IX-XX асрлар). – Б. 35–37.

¹¹¹ Муҳаммад Авфий. Лубоб ул-албоб. – Тохрон: Нашриёти Мумтоз, 1361. – 1036 б.; Муртазоев Б. Авфийнинг “Лубобу-л-албоб” таъкирасининг таркиби ва мундарижасига доир // Ўзбек адабиётшунослигида талкин ва таҳлил муаммолари мавзуидаги илмий-назарий анжуман материаллари. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2014. – Б. 120–125. (332 б)

¹¹² Носир Муҳаммад. Насаф ва Кеш алломалари (IX-XX асрлар). – Б. 44.

IX asrda mintaqada somoniylar hokimiyatining o'rnatilishi natijasida qaror topgan siyosiy barqarorlik ilm-fan va madaniy hayotning yuksalishiga zamin yaratgan. IX-XII asrlarda Movarounnahrda ilm-fan yuksalgan, hozirgi zamon fanining ko'plab tarmoqlari va yo'nalishlariga chinakam poydevor yaratilgan. Xususan, matematika, algebra, astronomiya, tibbiyot, geologiya, geodeziya, geografiya, falsafa singari dunyoviy fanlarning tamal toshi tom ma'noda shu davrda qo'yilgan.

2. IX-XII asrlarda Nasaf vohasi Movarounnahr mintaqasida kechgan siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarning markazlaridan biriga aylangan. Bu davrda vohada siyosiy barqarorlikning ta'minlanishi ijtimoiy va iqtisodiy hayotning rivojlanishiga, bu esa madaniy jihatdan yuksalishga olib kelgan. Ushbu davrda Nasafda hunarmandchilik va fan rivojlangan. Voha hududidan Buyuk ipak yo'li va turli savdo yo'llarining o'tishi Movarounnahrda boshqa markaziy shaharlar bilan iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatilishiga olib kelgan. Bu davrda vohada aholi soni oshib, uning etnik tarkibi ham boyib borgan. Manbalarda X-XI asrlarda Nasafda 30 ming nafar kishi istiqomat qilganligi ta'kidlangan.

3. Nasaf vohasi allomalari kalom ilmi rivojida katta xizmat ko'rsatishgan. Jumladan, Abu Muti' Makhul Nasafiy, Abul Yusr Bazdaviy, Abul Mu'in Nasafiy, Abu Hafs Nasafiy kabi olimlarning faoliyati Movarounnahrda moturidiylik ta'limoti rivojlanishi hamda qaror topishiga asos bo'lgan. Kalom ilmining buyuk allomasi imom Abu Mansur Moturidiy tomonidan yaratilgan moturidiya maktabining eng yirik namoyandalardan biri Abul Mu'in Nasafiy Movarounnahrda hanafiy mazhabining qaror topishida ulkan xizmat ko'rsatgan. Alloma o'zining "Tafsirat al-adilla", "Kitob at-tamhid li qovaid at-tavhid", "Bahr al-kalom" kabi asarlari orqali islom dinining softligini saqlashga va uni o'z davridagi turli buzg'unchi g'oyalardan himoya qilishga munosib hissa qo'shgan.

4. Markaziy Osiyo mintaqasiga islom dinining kirib kelishi natijasida aholi orasida musulmon aholi soni ortib borgan. Buning natijasida Qur'oni karimni o'rganish ehtiyoji paydo bo'lgan. Shu sababli tafsir ilmi vujudga kelgan. IX asrda Nasafda yashagan bir qator allomalar Qur'onga tafsirlar yozishgan. Jumladan, Abu Is'hoq Ibrohim ibn Ma'qal Nasafiy, Abu Is'hoq Ibrohim Sonjaniy Nasafiy tafsir kitoblarini yozgan, lekin ushbu kitoblar bizgacha yetib kelmagan. Abu Hafs Nasafiyning tafsir bo'yicha yozgan "al-Akmalu-l-atval", "Tafsiri Nasafiy", "at-Taysir fi-t-tafsir" asarlari bizning davrimizgacha saqlangan. Ushbu ilmning rivojiga hissa qo'shgan buyuk alloma Abul Barakot Nasafiyning "Madarik at-tanzil va haqiq at-ta'vil" asari "Tafsiri Nasafiy" nomi bilan tanilib, tafsir ilmi bo'yicha bugungi kunda ham asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

5. Nasaf vohasi allomalari fiqh (islom huquqshunosligi) ilmiga oid ham ko'plab asarlar yozishgan. Ma'lumki, VIII asr o'rtalaridan fiqh ilmi mustaqil ilm sifatida rivojlana boshlagan va bu davr islom huquqshunosligining shakllanishida "oltin asr" deb nomlanadi. VIII asr oxiri – IX asr boshlarida Nasafda fiqh maktablari vujudga kelgan. Nasaf shahri o'zining faqihlari bilan ko'proq shuhrat topgan. Ulardan Abu Mute' Makhul Nasafiy, Abu Ali Husayn Nasafiy, Abul Yusr Bazdaviy, Abu Hafs Nasafiy, Abulfazl Muhammad Burhon Nasafiylarni zikr etish

mumkin. Allomalarning asarlari hozirgi davrda ham islom bilim yurtlarida asosiy manba sifatida o'qitilib kelinmoqda.

6. Nasaf allomalari keng ko'lamda faoliyat olib borgan ilmlardan biri hadis ilmi hisoblanadi. Nasafdagi hadis ilmining taraqqiyoti haqida manbalardan, asosan Abu Hafs Nasafiyning "Al-qand fiy zikri ulamoi Samarqand" hamda Abu Sa'd Abdulkarim as-Sam'oniyning "Kitob al-Ansob" ("Nasablar haqida kitob") asarlarida ma'lumotlar berilgan. Bu manbalar ma'lumotlariga ko'ra, VIII-XII asrlar mobaynida Movarounnahrda 3000 nafardan ortiq ko'zga ko'ringan muhaddislar yashab, ulardan 400 nafardan ortig'i Nasafda o'z faoliyatlarini olib borganligi ta'kidlanadi. Nasaf Markaziy Osiyodagi to'rtta yirik hadisshunoslik maktablaridan biri hisoblangan. Imom Buxoriy Nasaf shahridagi Boyon mahallasida ma'lum muddat istiqomat qilib, vohada hadis ilmi rivojiga muhim hissa qo'shgan.

7. Tasavvuf ta'limoti Nasaf vohasida keng tarqalgan. Vohada shakllangan zohidlik maktabi Markaziy Osiyoda VIII-IX asrlarda mavjud bo'lgan – Marv, Buxoro va Samarqand diyorlarida shakllangan va rivojlangan to'rtta asosiy zohidlik maktablaridan biri sanalgan. Abu Turob Naxshabiy Nasaf vohasi zohidlik maktabining asoschisi hisoblanadi. X-XI asrlarda bu diyorda Mu'oz ibn Ya'qub Kosoniy, Abu Bakr Abd ibn Abul Abbos al-Yoniy Nasafiy, Abul Badi' Ahmad ibn Muhammad Nasafiy Makhuliy, Abu Ja'far Muhammad ibn Nazr al-Muaddib az-Zohid Mujduvoni, Abul Hasan Humayd ibn Naim al-Faqih, Abul Hasan Nasr ibn Ahmad Homid al-Homidiy, Abu Muhammad Usmon ibn Muhammad Nasafiy al-Muvoni, Abu Nasr Ahmad ibn Nasr al-Yag'naviy kabi so'fiylar faoliyat olib borishgan. Nasaf vohasidagi tasavvufiy qarashlar Marv, Buxoro va Samarqand so'fiylik maktablari bilan aloqa natijasida anchayin taraqqiy etgan.

8. Nasafda adabiy hayotning shakllanishi o'zbek adabiyotining umumiy taraqqiyoti tarixi bilan chambarchas bog'liq. IX-X asrlardayoq Nasafda yozma adabiyot namunalari vujudga kelgan edi. Bu davrlarda Nasafdan yetishib chiqqan shoirlar, olimlar an'anaga ko'ra, asosan arab tilidan, keyinchalik fors tilida ijod etishgan. Bu davrda Abul Horis Hamdavayh Varsiniy Nasafiy, Abu Muti' Makhul Fazl Nasafiy, Abul Abbos Mustag'firi Nasafiy, Abu Hafs Nasafiy, Shamsiddin Muhammad ibn Ali So'zaniy, Muayyiddin Nasafiy kabi ijodkorlar samarali faoliyat ko'rsatishgan. Shuningdek, voha allomalari aniq va tabiiy fanlar sohalarida ham izlanishlar olib borishgan. Masalan, Abu Hafs Nasafiyning "Matla' an-nujum va majma' al-'ulum" qomusiy to'plamida astronomiya, matematika, tibbiyot va zoologiya ilmlariga oid boblar mavjud. Bu allomalar dunyoviy va diniy fanlar bilan uyg'un holda shug'ullanishgan.

Mazkur tadqiqot ishini bajarish jarayonida quyidagi **taklif va tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Nasaf vohasida faoliyat olib borgan yetuk allomalarning bugungi kunda yurtimizda va xorijda saqlanayotgan qo'lyozmalarini yagona elektron platformada jamlash va kataloglarini shakllantirish, shuningdek, voha allomalari asarlarining o'zbek tilida ilmiy-ommabop nashrlarini tayyorlash va chop ettirish;

2. Qarshi davlat universiteti huzuridagi “Abu-l Mu’in an-Nasafiy” ilmiy-tadqiqot markazi moddiy-texnik bazasini kuchaytirish, ilmiy faoliyatini yanada kengaytirish va maqomini oshirish;

3. “Abu-l Mu’in an-Nasafiy” ilmiy-tadqiqot markazida har ikki yilda “Nasafiylar ilmiy-ma’naviy merosining jahon sivilizatsiyasida tutgan o‘rni” mavzusida turkum xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar o‘tkazishni yo‘lga qo‘yish;

4. “Nasafiylar ilmiy-ma’naviy merosi” jurnalini nashr etish va uning sahifalarida voqea tarixi va allomalari merosini yoritib borish;

5. Nasafiylar ilmiy-ma’naviy merosi bo‘yicha Buyuk Britaniya, Germaniya, Misr, Turkiya, Eron kabi mamlakatlar bilan xalqaro ilmiy aloqalarini kuchaytirish, shuningdek, xorijiy mamlakatlarda saqlanayotgan Nasafiy allomalar asarlarining fiksimal nusxalarining yurtimizga olib kelib, xalqimiz ma’naviy mulkiga aylantirish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD 03/27.02.2021.Tar.70.05 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
КАРШИНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

КАРШИНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ

ХУЖАЁРОВ АСИЛБЕК ОТАБЕК УГЛИ

**ВКЛАД УЧЕНЫХ ОАЗИСА НАСАФ В РАЗВИТИЕ
СРЕДНЕАЗИАТСКОЙ НАУКИ И КУЛЬТУРЫ В IX-XII ВЕКАХ**

07.00.01 – История Узбекистана

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ НА СОИСКАНИЕ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ДОКТОРА
ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ИСТОРИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Карши – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Республики Узбекистан высшего образования, науки и инноваций под № В2023.1.PhD/Tar1341.

Диссертация выполнена в Научно-исследовательском центре имени Абул Муъина ан-Насафий при Каршинском государственном университете.


Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-сайте Научного совета (www.qarshidu.uz) и Информационно-образовательном портале "ZiyoNET" (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:	Буриев Ачил кандидат исторических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Раймкулов Абдусабур Аззамович доктор исторических наук, профессор Аминов Бобир Бомурадович доктор исторических наук, профессор
Ведущая организация:	Шахрисабзский государственный педагогический институт

Защита диссертации состоится «17» 05 2025 года в 9⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/27.02.2021. Tar.70.05 по присуждению ученых степеней при Каршинском государственном университете (Адрес: 180119, г. Карши, ул. Кучабаг, 17. Тел.: (+998 75) 221-21-04, факс: (+998 75) 220-02-10; e-mail: kasu_info@edu.uz). Каршинский государственный университет.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каршинского государственного университета (зарегистрирована за № 268) (Адрес: 180119, г. Карши, ул. Кучабаг, 17. Тел.: (+998 75) 221-21-04).

Автореферат диссертации разослан «28» 04 2025 года
(реестр протокола рассылки № 14 от «28» 04 2025 года).



Б.Ж. Эшов
Председатель Научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.и.н., профессор

Н.Н. Ражабова
Ученый секретарь Научного
совета по присуждению ученых
степеней, к.и.н., доцент

Ю.А. Эргашева
Председатель Научного семинара
при Научном совете по
присуждению ученых степеней,
д.и.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В современном глобализирующемся мире все более усиливаются стремления и действия, направленные на исследование национального самосознания, созданного в прошлом богатого научного духовного наследия, полноценное распространение его среди широкой общественности. Наряду с этим широкой научной общественностью признаются великие заслуги ученых Центральной Азии, внесших свой достойный вклад в развитие науки и исламской цивилизации. Изучается и научно исследуется занявшие достойное место в процветании человечества великое наследие и учения таких великих ученых и мыслителей, как Имам Бухари, Имам Термизи, Имам Матуриди, Абул Муъин Насафи, стоявшие в ряду наиболее передовых ученых мира в первую эпоху Возрождения на Востоке как в области науки, так и религии и внесшие бесценный вклад в развитие исламской религии и человеческой цивилизации.

В передовых научно-исследовательских центрах мира осуществляются эффективные исследования, посвященные изучению научного и духовного наследия среднеазиатских ученых, осуществлявших свою деятельность в средние века. В частности, в таких ведущих научных центрах, как University of Oxford (Великобритания), British Institute of Persian Studies (Великобритания), Indiana University (США), International Society of Arabic Papyrology in Leiden-Holland (Нидерланды), Cairo University (Египет), Turkish Religious Foundation Centre for Islamic Studies (Турция), Marmara University (Турция), İstanbul Üniversitesi (Турция), Институт востоковедения Российской Академии наук, Казанский Исламский университет (Россия), также ведутся исследования, посвященные изучению наследия как в области светских, так и религиозных наук.

В условиях современного Нового Узбекистана усилился интерес к изучению научного и духовного наследия наших предков, в частности, ученых оазиса Насаф. Как утверждает Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев: «В различные исторические периоды в оазисе Насаф жили и осуществляли деятельность более 400 ученых, занимавшихся изучением ислама. Нашей важной задачей является глубокое изучение их научного наследия, издание их трудов на современном, доступном для понимания широкой общественности языке. В частности, научное и духовное наследие таких великих ученых, как Абул Муин Насафи, Наджмиддин Насафи, Азизиддин Насафи, Барокат Насафи, Хироми, Сайидо Насафи, Хаёли, имеют бесценное значение и в настоящее время»¹. В 2022 году в структуре Каршинского государственного университета был организован Научно-исследовательский центр «Абу-л Муъин ан-Насафи», что является ярким примером внимания к изучению научного и духовного наследия ученых оазиса. Вместе с тем специальное научное исследование в форме диссертации

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. (Стратегия развития Нового Узбекистана). Тўлдирилган 2-нашри. – Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, 2022. – Б. 298.

достойного вклада среднеазиатских ученых оазиса Насаф IX-XII веков в науку и культуру определяется актуальность этой темы.

Настоящая диссертация в определенной мере служит выполнению задач, намеченных в Указах и Постановлениях Президента Республики Узбекистан УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», ПП-2995 от 11 февраля 2022 года «О дополнительных мерах по совершенствованию системы хранения и исследования древних письменных источников», ПП-5186 от 16 июля 2021 года «О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Центра исламской цивилизации в Узбекистане при Кабинете Министров Республики Узбекистан», ПП-261 от 27 мая 2021 года «О мерах по развитию сферы услуг в музеях», постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан № 117 от 3 марта 2021 года «О создании Дирекции управления и благоустройства комплекса Абу Муин Насафи в Каршинском районе Кашкадарьинской области» и других нормативно-правовых актах, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей социального, правового, экономического, культурного, духовно-просветительского развития информационного общества и демократического государства и пути ее реализации».

Степень изученности проблемы. Источники и литературу по изучению научного и духовного наследия средневековых ученых оазиса Насаф целесообразно разделить на следующие группы, исходя из хронологии и содержания:

- 1) *труды средневековых авторов;*
- 2) *издания советского периода;*
- 3) *исследования узбекских ученых, осуществленные в годы независимости;*
- 4) *исследования зарубежных востоковедов.*

К **первой группе** можно отнести труды авторов, живших и осуществлявших свою деятельность в средние века, таких как Абдулкарим Кушайри (986–1072)², Нажмиддин Умар Насафи (1070–1142)³, Абдулкарим Самъони (1113–1167)⁴, Ёкут Хамави (1179–1229)⁵, Имам Шамсиддин Мухаммад

² Абдулкарим Кушайрий. ар-Рисолату-л-кушайрия // Абдулхалим Махмуд ва Махмуд ибн Шариф таҳқиқи. – Қоҳира: Дору-ш-шаъб, 1409/1989.

³ Абу Ҳафс Умар ибн Муҳаммад ибн Аҳмад ан-Насафий. Китоб ал-Қанд фи зикри уламои Самарқанд. Назар Муҳаммад ал-Форё бий таҳрири остида. – ал-Мамлака ал-Арабия ас-Суудия: Мактабат ал-Кавсар, 1412/1991; Нажмиддин Умар ибн Муҳаммад ибн Аҳмад ан-Насафий. Ал-қанд фий зикри уламои Самарқанд [Самарқанд уламолари хотирасига доир қанд (дек ширин китоб)]. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001. – 304 б.

⁴ Самъоний Абу Саъд Абдулкарим ибн Муҳаммад ибн Мансур Тамимий. Ал-Ансоб. Абдуллоҳ Умар Борудий таҳрири остида. – Байрут: Дорул фикр, 1419/1998; Абдулкарим ибн Муҳаммад ибн Мансур ат-Тамимий ас-Самъоний. Насабнома. Таржимонлар Абдулғофур Раззоқ Бухорий ва Комилжон Раҳимов. – Тошкент: Hilol-nashr, 2017. – 336 б.

⁵ Ёкут ал-Ҳамавий. Муъжам ал-булдон. 14 жилдлик. – Байрут: Дар Байрут, 1977.

Захаби (1274–1348)⁶, Ходжа Халифа (1609–1657)⁷, а также Умар Ризо Каххола (1905–1987)⁸. В этих трудах наряду с многими среднеазиатскими муфассирами, мутакаллимами, факихами, мухаддисами, мутасаввуфами и языковедами приведены ценные сведения об ученых, выходцах из Насафа, и их научной деятельности.

